

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR
NOMIDAGI ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

**Tarix fakulteti
O‘zbekiston tarixi kafedrası**

Qo‘lyozma huquqida

Odilov Baxtiyor

**Akademik A. Asqarovning arxeologiya fanini rivojlanishiga
qo'shgan xissasi
5120300 – tarix (mamlakatlar va mintaqalar bo‘yicha) ta'lim yo‘nalishi
bo‘yicha bakalavr akademik darajasini olish uchun yozilgan**

**BITIRUV MALAKAVIY
ISH**

**Ish rahbari: tarix fanlari
nomzodi, dotsent D.Sobirova**

Andijon – 2017 yil

Akademik A. Asqarovning arxeologiya fanini rivojlanishiga qo'shgan xissasi

Reja:

I. O'rta Osiyoda arxeologiya faning rivojlanish tarixi.....

II. Akademik A. Asqarovning tarix va arxeologiya fanining rivojiga qo'shgan xissasi.....

III. O'rta Osiyoda bronza davriga oid Surxondaryoda olib borilgan tadqiqotlar

Xulosa.....

Foydalangan adabiyotlar.....

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyin, ona-Vatan tarixini bilishga, o‘zlikni anglashga qiziqish ortdi. Zero, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ta’kidlaganidek, “O‘z tarixini bilmaydigan, kunini unutgan millatning kelajagi yo‘q. Bu haqiqat kishilik tarixida ko‘p bora o‘z isbotini topgan”¹.

Tarix saboqlari inson uchun namuna bo‘ladi, ta’lim tarbiya beradi. Tarix saboqlari xalqni hushyorlikka, o‘z ozodligimiz, istiqlolimizni ko‘z qorachig‘idek asrashga undaydi. Islom Karimov ta’kidlaganidek, “Modomiki o‘z tarixini bilgan, undan ruhiy quvvat oladigan xalqni engib bo‘lmas ekan, biz haqiqiy tariximizni tiklashimiz, xalqimizni, millatimizni ana shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur. Tarix bilan qurollantirishimiz, yana bir bor qurollantirishimiz zarur”².

Bugungi kunda tarixshunosligimizda o‘rganilishi dolzarb bo‘lgan masalalardan biri – O‘zbekiston hududidagi arxeologik yodgorliklar tarixidir. Ushbu yodgorliklarni o‘rganishda o‘zbek arxeologlarning ham alohida xizmatlari bor. Shunday arxeologlardan biri akademik Axmadali Asqarov. Olim O‘zbek xalqining etnogenezi va etnik masalalari bilan shuningdek O‘zbekistonning janubidagi neolit va bronza davriga oid yodgorliklarni tadqiq etish bilan shug‘ullangan.. Bu esa o‘z navbatida ushbu xududlarni o‘rganish uchun tadqiqot olib borishga imkoniyat yaratgan. Natijada O‘zbekistonning janubidagi arxeologik yodgorliklar keng miqyosida tadqiq etilib ushbu hududlarning qadimgi tarixi va madaniyati xaqida boy malumotlar to‘plangan.

Tadqiqotning ikkinchi bobi A. Asqarovning arxeolog sifatida olib borgan faoliyati daslabki tadqiqotlarga bag‘ishlanadi. Ushbu bobda vatanimiz xududida vujudga kelgan ilk shaharlar tarixi moddiy yodgorliklari misollar asosida yoritib berilgan. Ushbu yodgorliklarni o‘rganishda o‘zbek tarixchisi, arxeologi akademik Axmadali Asqarovning tadqiqotlari sanab o‘tilgan.

¹ Каримов И.А. Юсак маънавият-енгилмас куч. -Тошкент: Маънавият, 2008.-Б.4.

² Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. -Тошкент: Ўзбекистон, 1998.- Б.25.

Bitiruv malakaviy ishining uchinchi bobida O'zbekistonning janubidan A. Asqarov tomonidan topilgan bronza davriga oid yodgorliklar va ularning o'rganilish tarixi yoritilgan.

Ishda bronza davrining muxim xususiyatlari bilan bir qatorda ilk shaxarlarga xos bo'lgan xususiyatlar moddiy manbalar asosida yoritib berilgan.

Mavzuning o'rganilish darajasi. Mazkur bitiruv ishini yozish uchun ko'plab adabiyotlardan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy asosini Prezidentimiz I. A. Karimovning asarlari va mavzuga doir bildirgan fikr hamda nutqlari tashkil etadi³.

O'zbekistonning janubiy xududlari tarixini yoritishda tadqiqotchi olimlardan: A. Asqarov⁴, dan tashqari arxeolog olimlardan E. Rtveladze⁵, B. Abdullaev, A. Sagdullaev⁶, T. Shirinov, U. Raxmonovlarning ishlari o'rganildi. Ushbu tadqiqotlar natijasida bronza davri o'lkamiz janubiy hududlarila bo'lib o'tgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy taraqqiyoti masalalari va ayniqsa ushbu xududlarda ilk shaxarlarning paydo bo'lish asoslari va rivojlanish bosqichlari, ilk davlatchilikning paydo bo'lishi jarayonlariga ko'plab aniqliklar kiritildi.

Tadqiqot ob'ekti va predmeti. Tadqiqot ob'ektini arxeolog olim A. Asqarov rahbarligida O'zbekistonda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarni o'rganish tashkil etadi. Ishning predmetini esa shu xududdagi ilk shaxarlarning paydo bo'lishi va ularning tarixiy taraqqiyoti hamda ilk davlatchilikning paydo bo'lishi va u bilan bevosita bog'liq bo'lgan moddiy yodgorliklarni o'rganish masalalari tashkil qiladi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Tadqiqotdan ko'zlangan asosiy maqsad va vazifalar quyidagilardan iborat:

³ Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиклол ва тараққиёт йўли. -Т., «Ўзбекистон», 1992; Ўша муаллиф. Ўзбекистон иқтисодий ислохотларни чуқурлаштириш йўлида. -Т., «Ўзбекистон», 1995; Ўша муаллиф. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. - Т., «Ўзбекистон», 1997; Ўша муаллиф. Ватан саждагоҳ каби мукаддасдир. -Т., «Ўзбекистон», 1998; Ўша муаллиф. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. -Т., «Шарқ», 1998; Ўша муаллиф. Ўзбекистон буюк келажак сари.-Т., Ўзбекистон, 1998; Ўша муаллиф. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. -Т: Ўзбекистон, 2011.

⁴ А.Аскарлов Сапаллитепе Т.1973

⁵ Ртвеладзе.Э.В. Новые древнебактрийские памятники на юге Узбекистана// Бактрийские древности – Т. 1976.

⁶ Сагдуллаев А.С ва бошқ. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. Т. 2000

- O'rta Osiyoda arxeoogiya fani rivojlanishi ilmiy tadqiqotlarga asoslangan holda yoritish

- Akademik A. Asqarovning tarix va arxeologiya fanining rivojiga qo'shgan xissasini yoritish

- O'zbekiston janubida ilk davlatchilikning paydo bo'lishi va uning asosiy jihatlarini ochib berish;

Ishning ilmiy yangiligi. O'zbek arxeologi A. Asqarovning O'zbekistonda arxeologiyaga fanini rivojlantirishga qo'shgan xissasini eng yangi malumotlar asosida yoritib berish. Ushbu ishda soha bo'yicha tadqiqot olib borgan arxeolog olimlarning ham yangi arxeologik tadqiqotlari sanab o'tilgan.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati. Tadqiqotdagi materiallardan O'zbek arxeologlari faoliyatini yoritishda, ular olib borgan ilmiy tadqiqot ishlari bilan tanishtirishda O'zbekiston tarixi fanlaridan amaliy mashg'ulotlar olib borishda foydalanish mumkin.

Ishning tuzilishi. Bitiruv malakaviy ish kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ish 54 sahifani tashkil etadi.

O'RTA OSIYODA ARXEOLOGIYA FANINING RIVOJLANISHI

Qadim zamonlardayoq, aniqrog'i miloddan avvalgi I asrdayoq o'tmishdagi insoniyatni taraqqiyoti haqida, kishini xayratga soluvchi fikrlarni yozib qoldirgan olimlar bo'lgan. Ulardan birinchisi Rim yozuvchisi Lukretsiy Kar. U insoniyat taraqqiyotining malum bosqichida o'zining boshidan tosh, bronza va temir asrlarini kechirib, o'tgan degan fikrga kelgan. Shuning uchun insoniyat tarixini uch bosqichini sanab o'tgan. Yana bir ingliz olimi Xiristian Tomson insoniyat tarixida qadimgi tosh davrining muxim hususiyatlarini sanab tosh davri ham o'z navbatida rivojlanish bosqichiga qarab uch qismga bo'linadi: bular qadimgi tosh davri, o'rta tosh davri, yangi tosh davri deb sanab o'tgan. Bu davrlarni bir-biridan farqlarini sanab o'tgan. Kanadalik olim Gabriyel Martilye esa yangi tosh davrini muxim hususiyatlarini sanab uni uch bosqichga bo'lgan. Rus olimi R. Uvarov esa bronza davrini o'rganib qabrlarga tarif bergan va neolit davri qabrlari bilan bronza davri qabrlarini solishtirib bergan. Uvarov R arxeologiya fanini rivojlantirishda qabrlarning rolini yoritib bergan.

“Arxeologiya” degan so'zni qadimgi yunon faylasufi Platon miloddan avvalgi IV asrdayoq ishlatgan. Ammo shunga qaramay arxeologiya fan sifatida o'sha davrdayoq tashkil topgan va tarixiy yo'nalishga ega bo'lgan degan xulosaga kelib bo'lmaydi. Aksincha arxeologiya boshqa fanlarga nisbatan ancha yosh fanlar qatoriga kiradi. “Arxeologiya” so'ziga turli davrlarda turlicha ma'no berganlar. Platon arxeologiya deganda nimaiki o'tmishga oid bo'lsa ularni arxeologiya deb tushungan.

Arxeologik ilmiy izlanishlarning boshlanishi xorijiy mamlakatlarda XVIII asrga to'g'ri keladi. Ana shu XVIII asrning boshlarida eramizning 79-yilida Vezuviy vulqoni otilishi natijasida fojeali xodisalar yuz bergan. Pompey va Gerkulanum shaharlarida birinchi marotaba arxeologik qazish ishlari olib borildi va ilk bor 1600 yil ilgari xalok bo'lgan odamlarni hayotini aks ettiruvchi manzara paydo qilindi. Shundan so'ng o'sha zamon olimlari kundalik turmush tarzini aks ettiruvchi buyumlarni o'rganishning ahamiyati naqadar yuqori ekanligini tushundilar.

XIX asrga kelib dunyo miqyosida yirik arxeologik qazish ishlari boshlanib, bunday qazishlar arxeologiyani fan sifatida tashkil topishiga va shakllanishiga asos bo'ldi. O'ziga xos qazish usullari vujudga kelib, nazariy xulosalar paydo bo'la boshladi. Pompeydagi qazish ishlaridan so'ng Ossuriyaning poytaxti Nineviyada G.Leyard tomonidan o'tkazilgan qazish ishlari ajoyib natijalarni berdi. Shundan so'ng Misrda o'tkazilgan sistemali ravishda arxeologik qazish ishlari arxeologiyani o'tmish tariximizni tiklanishda imkoniyatlari juda katta ekanligini ko'rsatdi. Bu kabi yirik arxeologik izlanishlar jahonning boshqa mamlakatlarida ham arxeologiya fanini vujudga kelishiga, uni ahamiyatini tushunib etishishga o'z ta'sirini ko'rsatdi.

XIX asrni birinchi yarmida keng arxeologik ashyolar asosida qiyosiy analiz usulida Daniyalik arxeologik Zristian Tomsen insoniyat tarixini 3 ta davrga bo'lingan degan fikrni ilmiy ravishda isbotlab berdi. O'zining "Северные древности" (1831) va "Katalog muzeya v Kopengagene" (1836) nomli ilmiy ishlarida yozuvgacha bo'lgan butun davr tarixi tosh, bronza va temir kabi yirik davrlarga bo'linganini ko'rsatib berdi. Shunday qilib ilk bor Xristian Tomson tomonidan inson tarixini davrlashtirish ishlarga arxeologik ashyolarga suyanagan holda tamal toshi qo'yilgan edi. Tomsenning arxeologiya fani uchun juda qimmatli bo'lgan bunda ishini boshqa Daniyalik arxeolog P. Vorso taraqqiy ettirib, neolit va bronza davri qabrlarini o'rganib o'zining «Новые подразделения комменного и бронзового века» ishida bayon qilib berdi.

Shunday qilib XIX asr arxeologlari bir davrni taraqqiy etishi natijasida, ikkinchi davrga o'tish qonuniyatlarini to'g'ri ko'rsatib bera oldilar. Tomsen va Varsolar tomonidan yaaratilgan bunday xronologik sxemani Gabriel Mortile davom ettirib u eng qadimgi toshdan yasalgan mehnat qurollarini bir xil emasligini, vaqt o'tishi bilan qo'pol va dag'al tosh qurollari ixchamlashib, tobora takomillashib borishini aniqlab, poleoltitni o'zini bir necha darlarga bo'lish usulini ishlab chiqdi. Har qaysi davrlarga bo'ingan tosh qurollarni topilgan joylarini nomlari bilan atadi. Tomsen, Varso, Mortilelarning ilmiy izlanishlarining natijalari jahon arxeologiyasini rivojlanishida juda katta ahamiyat kasb etib, ularni ham

taraqqiy etishiga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Jamladan Rossiyada ham keng jarayonda arxeologik ishlar boshlanib ketdi. XIX asrni o'rtalarida graf A.S.Uvarov tomonidan 4 yil davomida katta masshtabda arxeologik qazish ishlari olib borilishi natijasida 7729 ta qabrlar ochilib o'rganildi. SHaxsan uning tashabbusi bilan Peterburgda arxeolog-numizmatiklarni jamiyati tashkil qilindi.

XIX asrda arxeologik to'garaklar va jamiyatlar Qozon, Toshkent, Tiflislarda tuzildi. XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib esa Rossiya hududida K.S.Merejkovskiy tomonidan Qrimda; I.S.Polyanov tomonidan Kostenkoda paleolitik yodgorliklari ochildi va o'rganildi. Umuman olganda XIX asrning ikkinchi yarmida rus arxeologlari tomonidan arxeologik materiallarga suyanan holda tarixiy xulosalar chiqarishga intilish kuchaygan edi. SHuning uchun ham D.N.Anuchin, V.V.Radlov, V.I.Sizov, A.A.Spitsin kabi olimlar tomonidan katta masshtabda ilmiy izlanishlar olib borildi. XIX asrning ikkinchi yarmida O'rta er xavzasida Genrix Shliman tomonidan eng qadimgi sivilizatsiya yodgorliklarini ochilishi va o'rganilishi butun insoniyatni hayratga soldi. Huddi shu XIX asrni ikkinchi yarmidagi dunyo arxeologiyasidagi yirik voqea ingliz arxeologi Artur Evans tomonidan Krit orolida o'tkazilgan arxeologik qazish ishlarining natijasi bo'ldi. A.Evansning xulosasiga kshra O'rta er dengizining sharqiy qismidagi eng qadimgi tarix ma'lum bo'ldi. Bu erda A.Evans uzoq yillar davomida vujudga kelgan shohlarning saroylari, shaharlar, ustaxonalar va qator ibodatxonalarni ochishga muvaffaq bo'ldi.

Shuni alohida aytish joizki, XVIII asrda jahonning ayrim ilg'or mamlakatlarida boshlangan arxeologik ilmiy izlanishlar XIX asrga kelib bir muncha rivojlandi. XX asrda esa ayniqsa taraqqiy etdi. Ammo bizning Markaziy Osiyo hududida, garchi insoniyat tarixini barcha davrini aks ettiruvchi yodgorliklarni ko'p bo'lishiga qaramay bu jarayon sust darajada bo'ldi. Bunga sabab chor Rossiyasini ham, Qizil imperiyani ham Markaziy Osiyo respublikalariga nisbatan mustamlakalar sifatida munosabatda bo'lishi edi. XX asrning ikkinchi yarmiga qadar Yahyo G'ulomovdan tashqari Markaziy Osiyo respublikalarida birorta ham milliy mutaxassislardan arxeolog yo'q edi. SHuning

uchun ham Markaziy Osiyo hududida arxeologik izlanishlarni asosan rus olimlari olib borar edilar.

XX asrni birinchi yarmida rus olimlari tomonidan ko'zga ko'rinarli qilingan ishlardan biri A.P.Okladnikovni O'zbekiston Respublikasini Surxondaryo viloyatida muste davriga oid Teshiktosh g'orini ochilishi va undan 8 yashar bolani suyak qoldiqlarini topilishi bo'lsa, ikkinchisi S.P.Tolstovning sinfiy jamiyatga oid O'rta Osiyo yodgorliklarni o'rganishi, sun'iy sug'orish kanallarini topilishi, gullab yashnagan Xorazmdagi shahar-qalani ochilishi va neolit davriga mansub bo'lgan "Kaltaminor madaniyati"ni arxeologiya faniga kiritilishi bo'ldi. Uchinchi yirik voqea V.M.Masson tomonidan XX asrning uchinchi choragida o'ziga xos dehqonchilikka va chorvachilikka asoslangan ishlab chiqaruvchi xo'jalikka oid "Joyitun madaniyati" deb nom olgan madaniyatni aniqlanishi bo'ldi. Ammo bu ishlarning bari Markaziy Osiyo respublikalarining hududlarida qilinishi lozim bo'lgan katta arxeologik izlanishlarni boshlanishi edi xolos. Shuning uchun ham oldinda juda katta miqyosda arxeologik ishlarni amalga oshirish vazifasi turar edi.

Bunday ulkan vazifalarni amalga oshirish uchun bizning Markaziy osiyo respublikamizda kishilik jamiyatining barcha davrini aks ettira oladigan tosh asridan tortib, o'rta asrlarni ham o'z ichiga olgan arxeologik yodgorliklar mavjud edi. Bu yodgorliklarda qazish ishlarini alohida mehr-muhabbat bilan olib boradigan va o'z millatini qadimiy tarixi bilan g'ururlana olish hissiyotiga ega bo'lgan milliy mutaxassislar amalga oshirishi kerak edi. Afsuski o'sha davrda aniqrog'i to XX asrning uchinchi choragini yarmigacha nafaqat bizning O'zbekistonimizda balki butun Markaziy Osiyodagi respublikalarda bunday mutaxassis arxeolog olimlar yo'q darajada edi. Markaziy Osiyo hududida olib borgan rus olimlarining arxeologik tadqiqot ishlarini erli xalqlar uchun o'ziga yarasha ijobiy tomonlari bo'lishi bilan birga qator salbiy tomonlari ham mavjud edi. Ijobiy tomonlaridan biri erli xalqlarning qadimiy tarixini ma'lum darajada yoritilishi bo'lsa, ikkinchisi erli milliy kadrlardan mutaxassis arxeolog olimlarni tayyorlashdagi xissalaridir. Salbiy tomonlaridan biri ko'p hollarda rus olimlarini O'rta Osiyo yodgorliklarini o'rganish jarayonlarida, bu erdagi madaniyatlarni

vujudga kelishini chetdan kelgan deb isbotlashga urinishlari bo'lsa, ikkinchisi bu bir necha ming yillardan buyon bizlar uchun ajdodlarimizdan meros bo'lib, saqlanib kelayotgan o'tmish madaniyatimizni aks ettiruvchi arxeologik topilmalarni Moskva, Peterburg shaxarlariga rus olimlari tomonidan uzluksiz ravishda olib ketilishi va hozirgacha qaytarib berilmaganliklaridir. Markaziy Osiyodagi Rossiyaga qaram bo'lib qolgan har bir respublika o'zining milliy arxeolog olimlariga ega bo'lmay turib, bu kabi salbiy oqibatlariga barham berib bo'lmas edi.

Buni o'z vaqtida anglagan birinchi o'zbek arxeologi va hozirgi kunda o'zbek arxeologiyasini otasi darajasiga ko'tarilgan akademik YA.G'.G'ulomovning tinimsiz qilgan sayi harakatlari tufayli O'zbekistonda Fanlar Akademiyasining tarix va arxeologiya institutida o'zbek arxeologlaridan tashkil topgan, o'ziga xos arxeologiya maktabi vujudga keldi.

Ma'lumki, XX asrning ikkinchi yarmiga qadar o'zbek xalqining mukammal, to'la-to'kis tarixini yorituvchi arxeologik ma'lumotlar deyarli yo'q darajada edi. Shuning uchun ham o'zbek xalqini tarixi haqida gapirilganda faqat yozma manbalarga asoslangan va sinfiy jamiyatda yashagan ajdodlarimizni faoliyatlari to'g'risidagina so'z yuritar edilar xolos. Vaxolanki bizning ajdodlarimiz tarixi sinfiy jamiyatda emas, balki ibtidoiy tuzum davrida ya'ni arxeologlarning xulosalariga ko'ra ajdodlarimiz tomonidan mehnat qurollarini ilk bor yasagan vaqtlaridan boshlanadi. SHuning uchun ham akademik YA.G'.G'ulomov har qaysi davr uchun alohida mutaxassis arxeolog etishtirishga kirishdi. Bu borada YA.G'ulomov Peterburg olimlari bilan kelishib, 1960-1970 yillar mobaynida A.Asqarov, U.Islomov, M.Qosimov, S.Raximov, R.Sulaymonov, T.Mirsoatov kabilarni fan nomzodlari qilib tayyorladilar. Bu milliy kadrlar YA.G'.G'ulomov boshchiligida O'zbekistonimiz hududida keng ko'lamda arxeologik qidiruv va qazish ishlarini olib bordilar. YA.G'.G'ulomovning tashabbuslari bilan milliy kadrlardan mutaxassis arxeologlar tayyorlash ishiga yanada e'tibor kuchaytirildi. Natijada O'zbekiston Fanlar Akademiyasining sobiq vitse prezidenti, zabardast olim, katta tashkilotchi, o'z xalqining fidoiysi, marhum I.M.Mo'minov

xomiyligida 1970 yilning 1 oktyabrida O‘zbekiston Fanlar Akademiyasining tarkibida butun Markaziy Osiyoda yagona bo‘lgan arxeologiya ilmiy tekshirish instituti tashkil topdi. Bunday ilmiy dargohni vujudga kelishi nafaqat O‘zbekiston Respublikasi, balki Markaziy Osiyo respublikalarining xalqlari uchun juda katta tarixiy ahamiyatga ega bo‘ldi. Oqibatda o‘sha davrlarda kommunistik tuzumning siquvi kuchli bo‘lishiga qaramay ko‘p qiyinchiliklar evaziga 10 dan ortiq fan doktorlari 50 dan ko‘proq fan nomzodlari tayyorlanib, ular tomonidan qadimiy tariximizni barcha jabxalarini o‘z ichiga oluvchi o‘nlab yirik monografiyalar va yuzlab muhim muammolar echimiga oid ilmiy maqolalar yuzaga keldi. Bunday ilmiy izlanishlarning yakuni, ajdodlarimizni ibtidoiy tarixini barcha qirralarini yoritish uchun poydevor bo‘lgan bo‘lsa, 1991 yilning 1 sentyabrida sevimli vatanimiz O‘zbekistonni mustaqillikka erishuvi barcha fanlar qatori arxeologiya fani va uni mutaxassis olimlari uchun ulkan maqsadlari bo‘lgan, o‘z xalqini qadimiy tarixini bor bo‘yi-basti bilan to‘la-to‘kis ko‘rsatishga imkon berdi. YUrtboshimiz I.A.Karimov aytganlaridek: “Mustaqillik yillari o‘z o‘tmishimizni, o‘z madaniyatimizni holisona bilib olish davridir. Bu jahon hamjamiyati tarix oldidagi vazifamizni anglab olish davridir... Bu davr ma’naviy uyg‘onish va milliy o‘zligini anglashning o‘sish davridir.” (I.A.Karimov 1995).

I.A.Karimov ajdodlarimiz tarixiga juda yuksak baho berishlari bilan birga biz tarixchilar oldiga jiddiy ma’suliyatlarni ham yukladilar. YUrtboshimiz ta’kidlaganlaridek hozirgi davrimizning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, tarix millatimizning haqiqiy tarbiyachisiga aylanib bormoqda. SHunday ekan biz arxeologlar yurtboshimizni bizning oldimizga qo‘ygan talablariga javob sifatida Markaziy Osiyo xalqlarining juda go‘zal va sermazmun bo‘lgan 1 million yillik tarixini, respublikamizning arxeolog olimlarini XX asrning ikkinchi yarmida qo‘lga kiritgan ulkan yutuqlari asosida, jumxuriyatimizni keng xalq ommasiga, birinchi navbatda maktab va oliygoh talabalariga, tarix o‘qituvchilariga tushunarli qilib bayon qilib berish maqsadga muvofiq bo‘ladi deb o‘ylaymiz.

Zero yoshlarimizni vatanga muxabbat ruhida tarbiyalashda ularni ma’naviyatini yuksaltirishda, ayniqsa bizning Markaziy Osiyo qadimiy

ajdodlarimizni jahondagi sivilizatsiyasiga qo'shgan hissalarini anglab etishuvida arxeologiya fanining roli beqiyosdir.

AKADEMIK AHMADALI ASKAROV VA UNING XAYOT YO'LI

O'zbekiston Fanlar Akademiyasining Akademigi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, Abu Rayhon Berniy nomidagi davlat mukofotining laureanti, tarix fanlari doktori, taniqli tarixchi arxeolog olim, arxeologiya fanining chuqur bilimdoni, tashkilotchi rahbar, ezgulik yo'lini o'zining hayot tamoyili qilib olgan ustoz va bag'ri keng inson, professor Ahmadali Asqarov 1935 yilda Namangan viloyati Uchtepa qishlog'ida oilada beshinchi farzand bo'lib dunyoga keldi. 1942 yilda Uchtepadagi maktabning birinchi sinfiga o'qishga bordi.

Mamlakatda urush bormoqda. Nemis fashist bosqinchilari to Volga daryosigacha etib kelgan. SHimoliy Kavkazni egallab, Boku sari intilmoqda. Boltik bo'yi, Belorusiya, Moldaviya, Ukraina, Rossiyaning g'arbiy viloyatlari allaqachon boskinchilar qo'li ostida. O'zbekiston frontdan uzoq bo'lsada, o'n minglab o'zbek yigitlari fashist bosqinchilariga qarshi mardonovor jang qilmoqdalar. Urush bo'layotgan jo'ylardan keltirilgan yuz minglab yetim bolalarni o'zbek xalqi o'z quchogiga olgan, yana yuz minglab ko'chib kelganlarga panoh bergan.

Ko'chirib keltirilgan zavod —fabrikalarni tiklab, ularda frontga kerakli qurol-aslaha, oziq-ovqat ishlab chiqarib, frontga etkazib bermoqdi. SHahar va qishloqlarda xalk tinimsiz mehnat qiladi . Och — yalangoch kishilar xar qanday ogirlikni sabr va toqat bilan engmokda. Lekin Xammaning xalbida «fashizm er bilan yakson qilinadi, biz galaba qozonamiz, bizning ko'chada ham bayram bo'ladi», degan ishonch xukmron.

Uchtepadagi bir necha xonadan iborat pastxam bir imoratda joylashgan maktabning birinchi sinfiga Axmadali o'qishga kirganda mamlakatda shunday axvol edi. Garchi maktab xonalari xarob, ta'mirtalab bo'lsada, ular toza, yigishtirilgan. Bir chekkadagi tunuka pechkada guzapoya gurillab yonadi. Xonalar issik bo'lmasa-da, sovuk xam emas.

O'n-o'n besh partadan uch-to'rttasida o'quvchi qizlar va o'g'il bolalar o'tirardi. Ahmadalining birinchi sinfdagi o'qituvchisi Sotiboldi Rustamov edi.

O'qituvchi sinfga kirib keldi. Bolalar o'rinlaridan turib uni qarshi olishardi.

-Salom, ultiringlar - dedi o`qituvchi.

Dars boshlanib, o`qituvchi birinchi qatordagi partada o`tirgan Ahmadalining yoniga keldi.

-Oting nima?

-Ahmadali.

-Asqarali akaning o`gillarimisan?

-Ha

-O`qishni xoxlaysanmi?

-Juda xoxlayman.

-Razxmat, o`g`lim.

-«Alifbe» kitobing bormi?

-Bor. Akamniki

-Juda yaxshi. Kani kitobingni ol-chi...

Axmadali ta`lisidan «Alifbe» kitobini olib o`qit uvchiga ko`rsatadi.

-Raxmat.

O`qituvchi xar bir bola bilan birma-bir tanishib chiqadi. Bu ko`p vaqtni olmadi. Chunki sinfda bolalar oz edi.

So`ngra Sotiboldi Rustamov xattaxta yoniga kelib uni latta bilan tozalib artdi va bir necha harfni xattaxtaga yozib, ularni o`qib berdi. SHundan keyin o`quvchilarga bu harflarni daftarga yozib olmoqni buyurdi.

Bolalar zarflarni asta-sekin daftar saxifasiga yoza boshladilar. O`qituvchi sinf bo`ylab yurar, ularning yozishlarini kuzatardi.

- Qani, qalamni to`g`ri ushlaginchi! Bosh barmoging bilan bir tomondan, ko`satkich barmoging bilan yuqoridan ushla. Ikkalasi bilan qalamni o`rta qo`l barmogingga qattiq bos. Xa, mana shunday. Endi yozaber!

Dars asnosida o`qituvchi fikr ziladi: «Bolalarning yarmi o`qishga kelmagan. Darsdan keyin yana hovlima-zovli yurmog`im kerak. Ota -onalarga bolani maktabga yubormok, zarurligini eslatmok, darkor. Ular ham nima qilsin. Xamma tirikchilik tashvishida, bir parcha non yoki bir zovuch don topmoz kerak-ku axir. Kancha oilalarda umuman qozon qaynamaydi».

Urush yillari hamma joyda zam shu azvol edi.

1952 yil. Urush tugaganiga endigina etti yil bo'lgan. Mamlakat og'ir jarohatlarini davolash bilan band.

O'sha yili Norin tumanidagi o'rta maktabni bir gurux yoshlar bitirdilar. Shular orasida o'n etti yashar Axmadali ham bor edi.

1953 yilda Axmadali Asqarov Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika institutining tarix fakultetiga oqishga kirib, talabalar safidan joy oldi.

Bu institut 1935 yilda tashkil topgan bo'lib, O'zbekistonning eng obro'li o'quv yurtlaridan biri edi. Axmadali Asqarov institutni 1957 yili tamomladi.

O'sha yillari O'zbekistan Fanlar akademiyasining prezidenti akademik Xabib Muzammedovich Abdullaev (1912—1962) edi. Bu kishi O'zbekistonda yosh ilmiy kadrlar tayyorlov ishiga katga e'tibor bergan. Juda ko'p yoshlarni aspiranturaga jalb etilgan; ularni Moskva, Sankt- Peterburg, Novosibirsk, Kiev va boshqa ilmiy markazlarga yuborilgan. Aspirantura va doktoranturada taxsil olayotganlarga yordam ko'rsatib turilgan. Ularning ilmiy ishlarini matbuotda e'lon qilish, ishlab chiqarishga joriy qilishda ko'mak ko'rsatilgan. Xech mubolag'asiz aytish mumkinki, XX asrning oxirlarida O'zbekistonda turli fan sohalarida bosh -qosh bo'lgan yirik olimlar Xabib Abdullaevning raxbarligi ostida ilm -fan sohasiga jalb etilgan yosh mutaxassislardir.

Axmadali Asqarov ham o'sha vaqtda katta ilmga kirib kelgan yoshlardan bo'lib, 1958 yili O'zFA tarix va arxeologiya institutining aspiranturasiga o'qishga kirdi va aspiranturani o'qimoqmok uchun Sankt- Peterburgga yuborildi. Bu erda Axmadali professor Mixail Petrovich Gryaznov rahbarligida ish boshladi. Yosh olimga nomzodlik dissertatsiyasi uchun «Zarafshon quyi oqimi bronza davrida» degan mavzu berildi.

Sankt- Peterburgda ot'gan besh yil-uch yil aspirantura, 2 yil kichik olim vazifasida stajirovka yosh olim uchun qattik mehnat, ilm tog'i cho'qilariga tinmay tirmashib chiqmoq yillari bo'ldi. U ilmiy izlanishlar, baxslar, yangi ilmiy kashfiyotlarning yo'lidagi to'siqlarni engish bilan tol'ib-toshgan ilmiy-ijodiy muhitda shakllandi. Kamtarona aspirantlik stipendiyasiga yashamoq, yotokxona

sharoitiga ko`nikmoq, ulkan mamlakatning turli- tuman joylaridan ilm uo`ganmoq uchun kelgan yoshlar bilan sog`lom munosabatlar o`rnatmok saboqlarini oldi. Kutubxonalarda kechgan soatlar, umumiy yig`inlardagi tortishuvlar, o`zi uchun yana bir yangi maktab-rus tilidagi kitoblar mutolaasi, bu tildagi muloqat madaniyati, kundalik turmushda rus tilidan tutri foydalana bilish tajribasi — hamma-hammasini yosh olim qunt va chidam bilan, dar kunlik mehnat bilan egallay bordi.

Aspirantlik mudlati 1961 yilda tutadi, sung ilmiy ishni yakunlash uchun Akademiya rahbariyati Axmadaliga yana ikki yilga Sankt- Peterburgda qolishga ruxsat berdi. Shu vaqt ichida Zarafshon quyi oqimidagi bronza davriga oid kop`lab material jamlangan. Chunki Admadali Askarov har yili Uzbekistonga kelganida bu erdagi arxeologik dazuvlarda faol datnashar, boy ilmiy material to`plar, tajriba ortgirar edi.

Tavalludiga 60 yil va ilmiy-pedagogik faoliyatiga 40 yil to`lishiga bag`ishlanadi.

Uzbekistan FA akademigi, tarix fanlari doktori, tanikdi arxeolog olim, professor Ahmadali Asqarov 1935 yil 25 sentyabrda Buyuk Turkiston zaminida, uning Norin daryosi bo`yidagi Uchtepa qishlog`ida dehqon oilasida tavallud topdi. Otasi Qo`ziev Asqarali va onasi Hamdamova Payzixon inqilobgacha oddiy batrak, keyinroq kolxozchi bo`lib shplaganlar, sakkiz bolani tarbiyalab voyaga etkazgaklar.

A Askarov 1952 yili Norin rayonidagi o`rta maktabni bitirgach

O`rta Osiyo Davlat Universitetiga (SAGU) sharkdgunos bo`lish orzusida

kirish imtihonlarini topshirib yuqori kursatgchlarga erishsada

tanlovdan o`ta olmadi, uni o`sha imtihon baholari bilan Toshkent Davlat yuridik institutiga qabul qilishdi. AMMO Ahmadali Asqarov ota-onasining noroziligi tufayli bir chorak o`qishdan so`ng ona qishlog`iga qaytib, o`zi o`qigan maktabda ish boshqaruvchi bo`lib ishladi. Kelgusi yili **(1953)** Nizomiy nomli

Toshkent Davlat pedagogika institutining tarix-filologiya fakultetining tarix bo'limiga o'qishga kirdi.

Talabalik yillaridayoq o'zbek arxeologiyasining otasi, taniqli olim YAhyo G'ulomovning ilmiy ma'ruzalari va u kishi bilan bo'lgan muloqotlar yosh AAsqarovning keyingi hayot yo'lini belgilab berdi. Talabalik davrida boshlangan ustoz-shogird muloqoti uzoq yillar davom etib o'zining samarali mahsulini berdi. Bir necha o'n yillar o'tgach olim o'z hayotida iz qoldirgan uch usgozi haqida xotirlab shunday yozadi: "Men o'z kasbim bo'yicha fan sirlarini bilishda ustozlarim **YA.G'.G'ulomov va M.P.Gryaznovlardan** saboq olgan bo'lsam, rahbarlik ish **faolyatim sirlarini** yana bir **ustoz I.M.Mo'minovdan** o'rgandim" (123, 34-35 betlar).

1957 yili o'qishni tugatib maktabda bir yil tarixdan o'qituvchilik qilganidan so'ng, ilmga bo'lgan chanqokdik AAsqarovni Respublika Fanlar akademiyasining tarix va arxeologiya institutiga boshladi. Aspiranturani uzoq Neva soxili - Leningrad shahrida SSSR FA Arxeologiya institutining Leningrad bo'limida mashhur arxeolog Mpgryaznov rahbarligida muvaffakiyatli yakunladi. 1963 yili "Zarafshon daryosi etaklari bronza davrida" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilib qadrdon ilm dargohiga qaytib keldi. Dastlab kichik ilmiy xodim (1961-1963), so'ng katta ilmiy xodim (1963-1966), keyinroq direktor o'rinbosari (1966-1970) lavozimlarida xizmat qildi.

Yosh mutaxassisdagi tashkilotchilik qobiliyati, arxeologiya faniga bo'lgan fidoyilik, o'ziga va atrofida tilarga nisbatan talabchanlik, hayotda va ilmdagi prinsipiiallik, halol-poklik o'sha paytdayoq ijtimoiy fan rahbarlari nazariga tushdi. Nihoyat, Ahmadali Asqarovich 1970 yili yangi tashkil etilgan Arxeologiya institutiga birinchi direktor etib tayinlandi. Endi AAsqarov zimmasida xukumat qarori bilan yangi tashkil etilgan ilm dargohini - arxeologiya ilmiy markazini bunyod etishdek og'ir vazifa turardi. AAsqarov va uning safdoshlari O'rta Osiyoda ilk bor tashkil etilgan institutni oyoqqa turg'izib olishda haqiqiy fidoyilik qildilar. Samarqandda ochilgan arxeologiya institutini shakllantirishda AAsqarovning ilmiy-tashkilotchilik va rahbarlik xizmatini alohida qayd etish zarur deb

hisoblaymiz. Yangi ochilgan institut binosini qurdirish va tegishli malakali kadrlar bilan ta'minlash o'z o'zidan bo'lavermas edi. Bu yo'lda uchragan to'siqlar va institutning juda og'ir kechgan tashkiliy shakllanish jarayoni yosh direktor AAsqarovni cho'chitmadi, u o'ziga xos qat'iy iroda bilan hayot achchiqchuchiklarini totishga ko'nikib, institutni birgina O'rta Osiyo mintaqasida emas, balki uni ilmiy o'rnini sobiq SSSR, hatto dunyo miqyosida tan olingan ilmiy markaz darajasiga ko'tara oldi. AAsqarov tashabbusi va bevosita rahbarligida institut bazasida bir necha bor mintaqaviy, butun ittifoq va xalqaro miqyosida ilmiy konferensiyalar, simpoziumlar tashkil etildi. U kishining bevosita rahbarligida birdam, ahil arxeolog-olimlar jamoasi shakllandi, o'ziga xos "Samarqand arxeologiya maktabi" tashkil topdi.

AAsqarov naf.aqat tashkilotchi rahbar, balkim haqiqiy fan

zahmatkashlaridan biridir. U Buxoro, Qarshi-Surxon cho'llarida,

Toshkent va Farg'ona vohalaridan tortib to uzok, Sibir kengliklarigacha bo'lgan xududlarda ko'plab arxeologik izlanishlar o'tkazgan fidoyi tadqiqotchi hamdir. SHu davr mobaynida olim Boyko'l (Baykal), Krasnoyarsk, Mohandaryo, Janubiy Turkmaniston arxeologik ekspeditsiyalari ilmiy-qidyrub ishlarida faol qatnashdi. Domlaning ko'p yillik ilmiy ishlari 11 monografik yirik asarlar, (shulardan 3 tasi darslik - qo'llanma), 200 dan ortiq ilmiy, ilmiy-ommabop ishlarda o'z aksini toptan. Ustozning ilmiy faoliyati ko'p qirrali bo'lib, vatanimiz tarixi va madaniyatiga oid ko'plab sohalarni qamrab oladi. Olim o'z tadqiqotlari bilan O'zbekiston qadimgi tarix fanida yangi yo'nalish ochdi. Bu yo'nalish ibtidoiy jamoa tuzumining emirilishi, sinfiy jamiyatni vujudga kelishi, urbanizatsiya jarayonlarini boshlanishi va rivojlanishi davrlarini arxeologik manbalar asosida o'rganilishi bilan uzviy bog'likdir. AAsqarovning chop etilgan kitob, risola va maqolalarini quyidagi 6 ta katta ilmiy yo'nalish bo'yicha umumlapgirish mumkin.¹

1. O'rta Osiyoning bronza va ilk temir davri tarixi masalalari;

2. Qadimgi shahar madaniyatining shakllanishi va ilk davlatlarni paydo bo'lishi tarixi;

3. O'zbek xalqining kelib chiqishi tarixi muammolari;
4. Arxeologiya fanining ilmiy uslubiy va nazariy asoslari;
5. O'zbekiston tarixining asosiy muammolari va unga yangicha yondoshish masalalari;
6. Ilmiy-pedagogik ishlar.

Bu tarixiy davr olimning ilmiy ijodiy faoliyatida alohida ahamiyatga ega bo'lib kashfiyotlar va prinsipial ilmiy xulosalarga boydir.

U ilmiy izlanishlarini Buxoro viloyatidan boshladi. Uning ibtidoiy davr yodgorliklarini o'rganish borasida qilgan ishlari Zarafshon va uni irmoqlari bo'yida Ya.G'.G'ulomov olib borgan ilmiy-qidiruv ishlari bilan uzviy boglikdir. Bronza davri ibtidoiy jamoa xo'jaligini ikki yunaljpda rivojlanishi haqidagi g'oya A Asqarov izlanishlari tufayli yangi ma'lumotlar bilan boyitildi. Xususan, A Asqarov cho'l va dasht zonalarida yashagan chorvador qabilalarning madaniyatini o'rganish ishida salmoqli natijalarga erishdi (1-9). Ayniqsa Zamonbobo madaniyatini o'rganishda olimning alohida xizmatlarini ta'kid etish kerak. Bu madaniyatga oid qabriston va ibtidoiy qishloq qoldiqlari kovlab urganildi. Uy-joy kurilishi, moddiy madaniyat ashyolari va dafn urf-odatlarini chuqur tahlil qilish natijasida dasht-cho'l rayonlariga xos bo'lgan Zamonbobo madaniyati ta'riflab berildi va alohida qadimgi madaniyat sifatida arxeologiya faniga kiritildi (2; 3. S.59-65). Tadqiqotchining cho'l-dasht erlarda yashagan qadimgi aholidan qolgan yodgorliklarni davrlashtirish va ular madaniyatini o'rganish masalalariga doir 20 dan ortiq ilmiy makrallari va bir kitobi hammualliflikda chop etilgan (9). SHu davrda Zarafshon vohasining cho'l zonasi yodgorliklaridan Qizilqir va Mo'minobod qabristonlari ham o'rganildi (13).

A Asqarovning ilmiy faoliyatidagi etakchi yo'nalishlardan yana biri Janubiy O'zbekiston - qadimgi Baktriya xududidagi bronza davri yodgorliklarini o'rganilishi, ularning qadimgi SHarq sivilizatsiyasidagi tutgan o'rni va ahamiyatini ochib berilishidir. Muallif 70 yillardan e'tiboran bir necha arxeologik yodgorliklarni topib, ularni chuqur tadqiq etdi. Sopollitepa va undagi qabriston to'laligicha kovlab ochildi, bunday holat arxeologiya fanida kamdan kam uchraydi.

Sopollitepa nafaqat boy topilmalari bilan, balkim u boshka yodgorliklarni o'rganishda o'ziga xos "etalon" bo'lib qoldi. Pshaktepa, Kuchuktepa, Jarqo'ton, Bo'ston kabi qadimgi shahar va qishloq qoldiqlari, ular bilan bog'liq dafinalar sistemali ravishda o'rganilib, Markaziy Osiyo arxeologiyasida o'z o'rnini oldi. Olimning Janubiy O'zbekiston yodgorliklarida olib borgan uzoq yillik izlanishlari natijasi 6 ta ilmiy monografiya, 80 dan ortiq ilmiy risola va maqolalarda umumlashtirildi. Ana shu asarlarda chiqarilgan muxim ilmiy xulosalardan biri SHimoliy Baqtriyada qadimgi SHarq sivilizatsiyasining yangi markazi - o'troq dehqonchilik va ilk shahar madaniyatining yangi o'chog'i Sopolli madaniyatini fanga kiritilishi bo'ldi (28; 33; 43; 44). Bu madaniyatni kelib chiqishi, uning rivojlanish boskichlari izchil to'rt xronologik davrga (Sopolli-mil.avv. 1700-1500, Jarko'ton - mil.avv. 1500-1350, Ko'zali- mil.avv. 1350-1200, Mo'lali -mil.avv. 1200-1000) bo'linib, ular boy faktik dalillar bilan isbotlab berildi (43; 44). Sopolli yodgorliklarini o'rganish jarayonida kovlab topilgan minglab topilmalar O'zbekiston halqlari tarixida yangi-yangi sahifalarni ochdi. Jumladan, qadimgi dehqonchilik madaniyati deyarli 1000 yilga, ipak va paxta tarixi 2000 yilga qadimiylashtirildi. O'zbekistonni ipak va paxtaning ilk vatanlaridan biri ekanligi isbotlandi.

20 yillik mashaqatli mexnat, ijodiy izlanish AAskarovning

"Janubiy O'zbekistonda bronza davri dehqonchilik madaniyati" nomli yirik asarini nashr etilishi bilan o'z yakunini topdi (44). Bu kitob olimning barcha asarlari ichida umumiyligi va xulosalarga boyligi bilan ajralib turadi.

Olimning muxim ilmiy izlanishlaridan biri bu arxeologiyada tortishuv bo'lib kelayotgan muammo-miloddan avvalgi II ming yillikning oxiri - miloddan avvalgi I- ming yillikning boshlariga oid "Yaz I " tipidagi madaniyatning kelib chikishini oydinlashtirishga hissa ko'shishi bo'ldi. Avvalombor shuni aytish kerakki, bu madaniyat uchun bir necha umumiylik belgilari bor: masalan, yodgorliklarni bir tarixiy vaqtga to'g'ri kelishi, ularda bo'yok, bilan gul solingan sopol idishlar mavjudligi, kulolchilikda charxdan foydalanmaslik, nihoyat mehnat kurollari va zeb-ziynat yasashda bronza (jez) bilan bir qatorda temirdan birinchi

bor foydalanish va boshqalar. Bugungi kunda O'rta Osiyoning yuzdan ortiq geografik rayonida ana shunday yodgorliklar mavjudligi aniklangan. Bu madaniyat dastlab va keng o'rganilgan arxeologik yodgorliklar nomi bilan tadqiqotchilar tomonidan qadimgi CHust madaniyati (M.E.Voronets, V.I.Sprishevskiy, Yu.A.Zadneprovskiy) deb fanga kiritildi. O'rta Osiyoning janubiy xududlarida yuksak rivojlangan o'troq dehqonchilik madaniyatidan so'ng (Nomozgoh, Oltintepa, Sopolli, Dashli va boshqalar) bu arxeologik kompleksni O'rta Osiyoning janubiy rayonlarida paydo bo'lishi ko'pchilik tadqiqotchilarni o'ylantirib ko'ygandi. Natijada bu madaniyatni kelib chiqishi masalasida olimlar orasida bir necha goya-fikrlar ilgari surila boshlandi. Masalan V.M.Masson, YU.A.Zadneprovskiylar YAz-1 tipidagi kompleks O'rta Osiyoning mahalliy qabilalariga Janubiy Turkmanistonning yuksak rivojlangan Nomozgoh madaniyati qabilalarining ta'siri tufayli vujudga kelgan deyilar. Boshqa bir guruh olimlar bu madaniyat egalari O'rta Osiyoga SHarqiy Eronning ma'lum bir nuqtalaridan ko'chib kelgan deb qaraydilar (V.I.Sarianidi, E.E.Kuzmina). Bu masalada A.Askarov Surxondaryodagi Kuchuktepa va unga o'xshash yodgorliklarda yilmiy-qidiruv ishlari olib borandan so'ng tamoman yangi fikrni o'rta tashladi. Ya'ni O'zbekistondagi CHust, Burg'uliy, Kuchuktepa kabi arxeologik komplekslarni shakllanishi tub joy chorvador aholining bir qismini mahalliy sharoit imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda o'troq dehqonchilikka o'tishi tufayli sodir bo'ldi deydi (79. S.26-28).

Ahmadali Asqarovning asarlarida qadimgi Baqtriya arxeologik kompleksini boshlanish sanasi (milod old. VIII asr) va xronologik doirasi (milod.old. VII-IV asrlar) belgilab berildi. A.Askarov birinchilardan bo'lib bu arxeologik kompleksni Eron ahomoniylari bilan bog'lashni asossizligini va u kelib chiqishi jihatidan janubiy O'zbekiston va shimoliy Afg'oiistonning yuksak rivojlangan bronza davri madaniyatining mahalliy ildizlari bilan bog'liq ekanligini ochib berdi (54. S.74-85). A.Askarov tashabbusi va bevosita harakatlari bilan Surxondaryo viloyatining SHerobod rayoni Oqqo'rg'on qishlog'ida qadimgi shahar madaniyati haqida hikoya qiluvchi maxsus arxeologiya muzeyi O'rta Osiyoda birinchi bor tashkil

etildi. 1983 yilda tashkil toptan bu qishloq muzeyi hozir ham keng jamoatchilikning e'tiboridan tushgani yo'q (204).

2. Qadimgi shahar madaniyatining shakllanishi va ilk davlatlarni paydo bo'lishi tarixi.

70 yillardayoq A Askarov O'zbekistonda (xususan uning janubiy rayonlarida) urbanizatsiya jarayoni an'anaviy qarashlardan farqli o'laroq ancha erta boshlanganini qattiq turib himoya qildi. Sabab, bu goyaga ishonchsizlik bilan qarovchilar ham ko'p edi. Ilk shaharlarning paydo bo'lishi va rivojlanish bosqichlarini o'rganittda AAsqarovning Sopoli, Jarqo'ton, Bo'ston kabi yodgorliklarda olib borgan qazishma ishlari alohida ahamiyat kasb etadi. Sopollitepada shaqar madaniyatini dastlabki belgilari kuzatilgan bo'lsa, Jarqo'tonda bundan 3,5 ming yil oldingi shahar madaniyati bilan bog'liq ibodatxona, hokim saroyi, mudofaa devori bilan o'ralgan ark qoldiqlari kovlab ochildi. A A Asqarov ilmiy asarlarida fanda mavjud bo'lgan qarashlardan tubdan farq qilib, O'zbekistonda ilk shaharlarning paydo bo'lishi tarixini rosa ming yilga qadimiylashtirildi. Ya'ni ilk shahar sanasi miloddan avvalgi II ming yillik o'rtalari bilan belgilandi.

AAsqarov ilk shaharlarni paydo bo'lishi va rivojlanishi borasidagi turkum kashfiyotlari uchun guruh ilmiy rahbari sifatida 1985 yilgi O'zbekiston respublikasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Davlat mukofotiga sazovor bo'ldi. 1984 yilda O'zbekiston Fanlar Akademiyasining muxbir a'zosi va 1987 yili esa O'zbekiston Fanlar Akademiyasi haqiqiy a'ziligiga saylandi-

Olim hozirgi kunda ham O'zbekistonning tarixiy vohalarida qadimgi urbanizatsiya jarayonlarini o'rganish ishlariga rahbarlik qilmoqda (SHimoliy Baqtriya, So'g'diyona, Xorazm, CHoch-Iloq va qadimgi Fargona). Ushbu xududiy mintakalarda AAsqarovning bir necha shogirdlari keng ko'lamli tadqiqot ishlari olib bormoqdalar. Urbanizatsiya jarayonlariga bagishlangan ko'plab asarlar e'lon etilmokda. 1994 yili ustoz shogirdlaridan biri tarix fanlari doktori T.SH.SHirinov bilan hamkorlikda "O'rta Osiyoda bronza davri ilk shaharlar madanshggi" nomli yirik kitobi (40 b.t.) chop etildi (127).

Qadimgi shaharlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi ilk davlatlar tarixi bilan uzviy bog'langan. Bu jihatdan ham Ahmadali Asqarovichning turkum - ishlari nashr etilgan bo'lib, ularda O'zbekistonda sinfiy jamiyat va ilk davlatlar tarixini o'rganish borasida ma'lum bir yo'nalishga asos solingan. Muallif O'zbekistondagi ilk davlatlarni paydo bo'lishi jarayonini ikki xronologik davpga bo'ladi: 1. Miloddan avvalgi VIII-VII asrlar; 2. Miloddan avvalgi V-milodning IV asrlari (129. 191-197 betlar; 131. 31-35 betlar). A A Askarov davlatchilik tarixini o'rganishda yozma va arxeologik manbalarni qiyoslab taxdil etish tufayli O'rta Osiyoda harbiy demokratik prinsiplarga asoslangan eng dastlabki ikkita davlatlar konfederatsiyalari bo'lgan degan goyani ximoya qilib chikdi. Bular "Katta Xorazm" va "Qadimgi Baktriya podsholigi"dir. Ikkinchi bosqichda YUnon-Baktriya, Qang', Davan (Fargona) kabi davlatlar paydo bo'ladiki, ular antik davr madaniyatida sezilarli iz qoldirganlar. Keyingi paytda e'lon etilayotgan maqola va kitoblarda ilk davlatlarni asosiy xususiyatlari (o'rni, tuzilishi, boshqaruv usullari, ularning poytaxti va shaxarlari) keng yoritilgan. Ya'ni ushbu davlatlar erkin dehqon jamoalarini dehqonchilik xo'jaligiga asoslangan va patriarxal kulchilik xarakteridagi davlatlar ekanligi isbotlab berilgan (131. 35 bet).

Tariximizdagi eng muhim, nozik va echilishi kerak bo'lgan masalalardan biri uzbek xalqining kelib chiqishi tarixidir. Bu muammo uzoq vaqtlardan beri ko'plab soha mutaxasislari tomonidan o'rganilib kelinmoqda. Ammo bu masalaga qiziqshp keyingi 10-20 yil ichida to'plangan arxeologo-antropologik materiallarni ortishi va ayniqsa O'zbekistan mustaqillikka erishgandan so'ng yanada kuchaydi. Akademik Asqarov turli soha olimlari (arxoologlar, tarixchilar, sharkshunoslar, tilchilar, antropologlar, folklor1punoslar, elshunoslar, iumizmatlar) jamoasini birlanggirib samarali ishlarni amalga oshirmokda. Bunipg uchun olimlar jamoasi oldiga etnogoneziipg ajralmas bo'laklari bo'lmish: etno-madaniy, etno-siyosiy, tsrritorial-iktisodiy, til, genetik-populyasiya sohalarini chukur tadqiq etish asosiy vazifa qilib ko'yildi. AAAsqarov dastlab ishni o'zbek xalqining etnik tarixini ma'lum izchil xronologik davrlashtirishdan boshladi.

Ma'lumki, O'rta Osiyo qadimdan o'troq dehqonchilik madaniyati o'chogi hisoblangan. Bu erda azal-azaldan Turon xalqlarining bobokalonlari yonma-yon, qon-qardosh bo'lib yashaganlar. Ular ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonda deyarli bir vaqtda xalq, elat sifatida shakllandilar.

Arxeolog-etnografik va yozma manbalarga ko'ra miloddan avvalgi VIII-VII asrlardan e'tiboran hozirgi O'zbekiston territoriyasida yashagan aholi o'zlari istiqomat qilgan vohalar nomi bilan So'g'diyonada-so'g'diylar, qadimgi Xorazmda-xorazmiylar, qadimgi Baqtriyada-boxtarlar, qadimgi Chochda-chochliklar, atrofdagi dashtlarda saklar deb atalgan. Ular hozirgi Turkiston xalqlarip1 elat sifatida shakllanip1ida asosiy etnik qatlamni tashkil etganlar. Ular to xalq bo'lib shakllashunlariga qadar uzoq tarixiy jarayonni bosib o'tganlar.

Shuning uchun bo'lsa kerak bu xalklar tashqi qiyofasida o'xshashlik va yaqinliklar kuzatiladi. Xususan hozirgi o'zbeklar va voha tojiklariga xos tip "ikki dare oralig'i tipi" (pomir-farg'ona tipi) deyiladi (85. S.8). Bu irqiy tip antropologik ma'lumotlarga kura oldingi - neolit va bronza davri materiallarida uchramaydi. Professor T.K.Xodjayov xulosasiga ko'ra faqattina miloddan avvalgi asr oxirlari va milodiy asr boshlarida O'rta Osiyo shimolida hozirgi o'zbek va voha tojiklariga xos "ikki dare oraligi irqi" shakllanadi. A.Askarov ilmiy xulosalarida bu uzbek xalkini kelib chiqishini birinchi bosqichidir (85. S.9). Etnogenezning ilk bosqichida yuechji, xionit, kidarit, eftalitlar ham sezilarli rol o'ynaganlar. Ayni shu vaqtda Sirdaryoning o'rta havzasida "qovunchi madaniyati" shakllandi. Arxeolognk materiallar taxlili nguni ko'rsatadiki, milodning P-SH asrlaridan "qovunchi madaniyati"ta'siri Farg'ona vodiysiga, So'gdni markaziy rayonlariga, keyinroq IV-V asrlarda Buxoro, hatto Surxondaryo yodgorliklarida qayd etiladi (85, S.8-9;130). Etnik jihatdan bu madaniyatni ta'sirini yoyilishini AAsqarov turkiy tilli xalqlarning tarqalishi bilan boglamoqda. A A Asqarovning etnik tarix sohasida muhim xulosalaridan yana biri, turkiy tilli xalq-elatlar juda qadimdan Sirdaryoning o'rta havzasida yashab keladilar degan fikridir. Uzoq vakt fanda turkiy tilli xalklarni hozirgi o'rnashgan erlarga Oltoy tomondan ommaviy ko'chib kelgan degan mavhum fikr bor edi. Bu goyani aqsi o'laroq AAsqarov ishlarida

antropologik va arxeologik materiallarga asoslanib, turkiy tilli axrli xunlar kelishidan (mil.avv. PT asrlar) oldin ham ikki dare oraligida yashaganligi isbotlandi.

II bosqich VI asr 2-yarmidan boshlanadi. O'rta Osiyo erlarini Turk xoqonligi tasarrufiga o'tishi turkiylashish jarayonni tezlashtirdi. Arxeologik va yozma ma'lumotlarga ko'ra Toshkent vohasida bu davrga kelib turk tudonlari hokim edilar. Turkiy va forsiy zaboi elatlarni bir birlari bilan aralashib ketishi jarayoni kuchaydi. O'rta Osiyoni shimol, shimoli-sharq rayonlarida turkiy joy nomlari paydo bo'ladi.

III bosqich IX asr 40-yilla[>ida Qarluklar davlati tan1kil topishi bilan bog'liqdir. Katta territoriyadagi aholining moddiy-madaniyati, til, jismoniy tuzilishida bo'lgan umumiylik (o'xshashlik) kabi etnik bolgilar qayd etiladn.

IV. bosqich XI asrdap, ya'ni Qoraxoniylar sulolas:i danrida Movarounnahr territoriyasida o'zbek xalqi etnogenezing shaklanish jarayoni bilan tugallanadi.

U_bosqich X11I-XV asrlar Xorazmshoh va Temuriylar davriga to'g'ri keladi. Bu davrda o'zbek xalqining etno-siyosiy, etno-madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy va til sohalaridagi tarixiy taraqqiyoti davom etadi. Eski uzbek adabiy (ANavoiiy, Z.M.Boburlar) tili ko'hna Typrenj lahjasi asosida rasman shakllanadi.

VI bosqich XVI asr boshlariga to'g'ri keladi va Dashti Qipchoqning turkiy tilli xalqi ko'chib kela boshlashi bilan ularni mahalliy turkiylashgan axoli bilan aralashib ketishi ro'y beradi. Shayboniyxon qo'shinlari orasida turkiylashgan mo'gul urug'lari ko'pchilikni tashkil etardi. Ular orlat, durmon, ko'ngirot, mang'it, nukus, chimboy, kenagas, ming uruglari turkiylashgan aymokdar bo'lib, ular uzok, vaqt alohida ztnik guruh safatida yashab qolaperdilar; Bu uruglar keyinchalik o'zbek millatining shaklanishida muhim rol o'ynadilar (130).

Akademik L.L.Askarom etnogenez masalalarida bazi bir ziyolilar qarashlaridan keskin farq qilib, o'zbek xalqini kelib chiqishi tarixini qo'shni tojik, qozoq, qirg'iz, turkmanlar tarixi bilan bir butun yaxlit holda o'rganish muhimligini takid etadi. "Markaziy Osiyo xalklarining kslib chiqish ildizi, o'q tomiri bitta. Agar u xalkdarni daraxtga o'xshatsak, o'sha daraxtning tanasi, o'q ildizi sak-massaget,

so'g'diy, xorazmiy, boxtar, chochlik va parkonalik edi. Ana shu tananing bir payiand pyuxi tojik bo'lsa, ikkinchi payvand shoxi o'zbek bo'ldi. O'sha daraxtii uchipchi payvand shoxi turkman bo'lsa, to'rtinchi naypand shoxn qozoq edi, boshinchi iaynand shoxi qirgiz bo'lsa, u daraxtnmng yapa bir paynapd shoxi qoraqalpoq xalqi. Domak, O'rga Osiyo hududida qadimdan yashagan turkiy va forsiy xalqlarning ildizi birdir" (130).

Etnogenez masalalari borasidagi kompleks tadqiqotlar davom etmokda. O'tgap 1994 yili akademik AAsqarov rahbarligidagi "O'zbek xalqining kelib chiqishi tarixi" konsepsiyasiga bag'ishlangan programma fundamental tadqiqotlar fondining ilmiy loyihalar buyicha g'olibi deb topildi.

Qadimgi tariximizni o'rganish bobidagi murakkab masalalarni echilishi ko'p jihatdan arxeologik qazishmalardagi ko'llaniladigan uslubiyotga va nazariy yo'llanmalarga bog'liq. A.Asqarov o'z ilmiy-ijodiy faoliyatida ilg'or, zamoshshiy ilmiy-uslubiy yondoshishlardan foydalanishga qarakat qnlldi i« ularni o'zi o'rgaiayotgan ydgorliklarda tadbiiq etdi. Buning misoli sifagida Sopolli va Jarqo'ton yodgorliklarida olib borilgini tabiiy va aniq fanlar uslublarini keltirish mumkin. Umuman 1970 yillardan AAsqaryuv rahbarligida faoliyat ko'rsayotgan Surxandaryo kompleks arxeologik ekspeditsiyasi me'moriy qoldiqlarpi, qadimiy qabrlarni kovlab ochish bo'yicha mukammal o'z uslubipi ishlab chiqdi. Bu uslubiy yo'llardan hozirda ham, kelajakda ham ko'plab arxeologlar dasturamal sifatida foydalanadilar.

Moddiy madaniyatimiz jonkuyari tashabbusi bilan Arxeologiya insgitugida dala-qidirup qazishma ishlaripi nazorat qilunchi organ-dala tadqiqotlari qo'mitasi tuzildi. Arxeolog mutaxasislarga amaliy yordam sifatida birinchi bor ushbu ko'mitani izohli ko'llanmasi nashr etildi. Olim raislik qilayotgan bu qo'mita O'zbekiston ¹ hududida arxeologik qazishma ishlari sifati va ulardagi metodik tomonlarini nazorat etuvchi yagona tashkilot bo'lib qolmokda.

Tadqiqotchining umumtarixiy va madaniy-ijtimoiy sohalar bo'yicha qilgan nazariy ishlarini ham keltirib o'tish zarur. Ayniqsa dastlabki shaharlar va urbanizatsiya jarayonlari nazariy asoslarini ishlab chiqilganini eslatib

o'tshn o'rinlidir. Arxeologik materiallarni jalb etshn asosida ilk shaharlarni "modellashirish" va bu asosda tarixiy jarayonni tiklash borasida ma'lum natijalarga erishildi. Sopollitepa uchun arxeologik va etnografik materiallar asosida (yodgorlik maydoni, mudofaa devorlari, hunarmandchilik rivojiii solishgirib) yodgorlikning har bir tarixiy davridagi aholi soni, uni yashash joyiga nisbatan zichligi, aholiga ketgan oziq-ovqat (bug'doy) mikdori hisoblab chiqildi (44. S.145-148; 94. S.114-117). Bu ma'lumotlar boshqa bir katta yodgorlik Jarqo'tonda to'ldiridli,shahar madaniyatini keyingi rivojini o'rgangal chukurlashtiriddi.

Sopolli-Jarqo'ton shahar madaniyatining bosqichma-bosqich rivojlanishini, kichik bir xududdan katta vohalarga yoyilishini boy arxeologik materiallar asosida nazariy jixatdan ishlab chiqildi va muallif hamkasblari bilan hamkorlikda arxeologiyaning nazariy uslubi bo'yicha^maxsus monografiya chop etdi (94. S.17-46, 114-117, 143-145).

Akademik A.Asqarov nafaqat arxeologiya va etnologiya ilmining tom ma'nodagi etakchi mutaxasisi, shu bilan birga tariximizning keyingi bosqichlari bo'yicha ham tan olingan bilimdonidir. U hozirgi kunda Uzbekistan Respublikasi FA Tarix instigutining direktori sifatida tarix fanining ustivor yo'nalishlarini tadqiq etishda etakchilik qilmokda.

Uzbekistan Respublikasi mustaqillikni ko'lga kiritishi munosabati bilan ijtimoiy-gumanitar fanlar qatorida tarix oldiga ham ma'suliyatli vazifalar ko'iilmokda. Sobiq sovet tuzumi davrida bolshevizm mafkurasi iskanjasida buzib yozilgan tariximizni adolat tarozisiga solib qaytadan, yangicha qarashlar va yangicha yondoshuv asosida yozish kerak edi. Bu murakkab vazifani bajarishni respublikada tarix markazlari bo'lgan Respublika FA Tarix va Arxeologiya instituglari o'z zimmalariga oldilar. Bu vazifa O'zbekistoning eng qadimgi davrlaridan hozirgi kunga qadar bo'lgan haqqoniy tarixini shu kunping talabi asosida yozishdan iborat edi. Ana shu muhim na dolzarb muammoni hal qilishga Tarix instituti direktori, akademik A.Asqarov rahbarlik qilmokda. Uning ilmiy rahbarligida 6 jilddan iborat bo'ladigan Uzbekistan tarixining barcha jildlari buyicha yangi konsepsiyalar ishlandi. Konsepsiyalar qayta-qayta muhokama

qilinib mustaqillik talablari asosida takomillashtirib borildi. A.Asqarov boshchiligida amalga oshirilayotgan bu fundamental tadqiqot nihoyasiga etkazilib, barcha jildlar yozib tugallanmokda. 1993 yilda esa Uzbekistan tarixining 3-jildi rus tilida chop etildi(176).

Hozirgi kunda akademik A.Asqarovning tashabbusida va ilmiy rahbarligida oldingi davrlardan o'zining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jihatlari bilan tubdan farq qiladigan O'zbekistonning mustaqillik davri tarixiga bag'ishlangan alohida 7-chi jildini tayyorlash boshlandi. Bu fundamental ilmiy asarni tayyorlatpda respublikamizning yuqori malakali muxassis olimlari: tarixchilar, faylasuf va iqtisodchilar jalb qilingan. Boy materiallar asosida yoziladigan O'zbekiston tarixining 7-chi jild fundamental asari chukur tahlil asosida va rangli suratlar bilan tayyorlanib Respublikamiz mustaqilligini 6 yilligita sovg'a qilish rejalashtirilmokda.

Jonkuyar olim, akademik A A .Asqarovning tarix ilmini rivojlantirishdagi faoliyati bu bilan cheklanmaydi. Uning ilmiy rahbarligida o'zining salmog'i va qadimiyligi bilan jahon I-sivilizatsiyasi rivojida o'z o'rnini toptan boy madaniyatimiz tarixi o'rganilmokda.

A.Asqarov butun ilmiy faoliyati davomida arxeolog kadrlar tayyorlash ishiga alohida e'tibor berib kelmokda. U kishining shaxsiy tashabbusi bilan Rossiyaning Moskva, Sankt-Peterburg, Novosibirsk kabi yirik markazlarida o'nlab O'zbekistonlik yosh mutaxassislar tahsil oldilar. Ularni barchasi nomzodlik va doktorlik dissertatsiya larini yoqlab qaytdilar, shu kunlarda ular O'zbekiston tarix va arxeologiya faniga xizmat qilmokdalar.

1960-1970 yillarda va undan oldin ham arxeologiya mutaxassisligi bo'yicha O'zbekistonda yuqori malakali kadrlar-fan nomzodlari va doktorlari tayyorlash ishi mintaqada arxeologiyadan maxsus himoya kengashi yo'qligidan Moskva va Sankt-Peterburg ilmiy markazlari bilan bogliq edi. Bu hol yuqori malakali kadrlar tayyorlashda kup qiyinchiliklarni keltirib chiqarar edi. 1970 yilda Samarkandda O'zbekiston Fanlar Akademiyasi tizimida maxsus Arxeologiya instituta tashkil etilgach mahalliy kadrlarga bo'lgan talab yana ham oshdi. Zamon talabi bilan

ishlashga odatlangan A.Asqarov bu holatni birinchilar qatorida payqadi va uning tashbbusi bilan 1987 yili Samarqand arxeologiya instituta qoshida nomzodlik himoya kengashi tashkil etildi, keyinroq esa u mintaqaviy doktorlik himoya kengashiga aylantirilib, unda O'rta Osiyo respublikalari uchun o'nlab yoshlarning arxeologiya mutaxassisligi bo'yicha himoyalari uyushtirildi.

Ustoz bir necha yil Samarqand Davlat universitetida, o'qituvchilar malakasini oshirishi institutida, kooperativ institutida tarix va arxeologiyadan talabalarga saboq berdi. Oliy o'kuv gartlari uchun 2 ta, o'rta maktab 5-sinflari uchun darslik-qo'llanma tayyorlab chop etdi (77; 117; 129). 1994" yili A.Asqarov harakatlari va bevosita rahbarligida o'rta maktablar uchun "Uzbekistan tarixi" o'kuv qo'llanmasi (5-9 sinflar uchun) ommaviy nusxada 5ta kitob nashrdan chikdi (189-192). Hozirgi kunda mana shu besh darslikni (O'zbekiston tarixi, darslik va ko'llanma) rus, qozoq, tojik, kirgiz, turkman, qoraqalpoq tillarida nashr etish ishlariga kirishildi.

AAsqarov bagri keng, saxiy ustozlardan xisoblanadi. Ustozning bevosita ilmiy rahbarligi ostida 10 nomzodlik dissertatsiyasi va 2 doktorlik ishi muvaffakiyatli ximoya qilindy (205-216). Hozirgi kunda ham arxeologlardan To'rabyokov M. (Qoraqalpoq Davlat universiteta), Raxmonov U. (Toshkent Davlat universiteta), Berdimurodov A Matboboev B, Papaxristu O. (Arxeologiya instituti) va boshqalar ustoz raxbarligida doktorlik ilmiy ishlari ustida ishlamokdalar. Ustoz o'z faoliyatida 40 dan ortak, kitobga jumladan Arxeologiya institutining bosh nashri "O'zbekiston moddiy madaniyati tarixi" 14 jildiga muharrirlik qilgan.

AAsqarov ilmiy maqola va kitoblari xalqaro ilmiy jamoatchilik tomonidan tan olingan. Uning qator kitob va ilmiy maqolalari chet ellarda chop etilgan (133-144). Olimning goya va xulosalari sobiq SSSR va ko'plab chet ellardagi ma'ruzalarda bayon etilgan. 15dan ortiq xalqaro simpozium, konferensiyalarda arxeologiyaning dolzarb mavzulari bo'yicha chiqishlar qilgan. Birlashgan millatlar tashkilotining YUNESKO bo'limi tomonidan nashr etilayotgan olta jilddik "Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi tarixi" mualliflaridan biridir. 1989-1991 yillari YUNESKO tomonidan uyushtirilgan xalqaro ekspeditsiyalar ishida aktiv qatnashdi. 1991 yili esa "Buyuk Ipak yo'li - l\guloqotlar yo'li" xa\qaro ekspedksiyasining ilmiy rahbari

bo'lib xizmat qildi. AQSH, Fransiya, Germaniya, Turkiya, Hindiston, Eron kabi o'nlab davlatlarda ma'ruzalar o'qigan. 1986 yilda u Germaniya arxeologiya institutining xorijiy muxbir a'zosi qilib saylangan.

A.Asqarov xalqlar o'rtasidagi do'stlik, qardoshlik va madaniy aloqalarning rivojlanishiga ham ulkan hissa qo'shib kelmokda. Jumladan, 1991 yil bahor oyida Alma-Ati shahrida bo'lib o'tgan YUNESKOning seminar kenxashida amerikalik professor Richard Fray bilan birga Markaziy Osiyo tadqiqotlari institutini tuzish goyasi bilan chikdilar. Bu markaz Qozog'iston, Qirgiziston, Tojikiston, Turkmaniston, O'zbekistop kabi mustaqil, yosh davlatlarni jahon sivilizatsiyasidagi tarixiy o'rnini o'rganishda Hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bu taklifga Ahmadali Asqarovich Alma-Ati, Parij, Tehron. Samarqand shaharlarida bo'lib o'tgan YUNESKO yiginlarida xalqaro jamoatchilik e'tiborini qaratdi, bu goyani himoya qilib chikdi. Nihoyat, 1995 yil 5 iyulda Samarqandda 12 davlat vakillari ishtirokida bo'lib o'tgach xalqaro konferensiyada "Markaziy Osiyo tadqiqotlari xalqaro instituta" ochilishi haqida bitam imzolandi. 1995 yil 26 avgustda esa ushbu xalqaro Institutni YUNESKOni bosh rahbari prof. Federiko Mayor ishtirokida rasman ochilish tantanasi bo'ldi.

Xalqaro ilmiy aloqalar haqida ran ketganda ustozning muxim bir prinsipial tashkilotchilik rolini ta'kid etish zarur deb bilamiz. CHunki sobiq SSSR davrida mahalliy kadrlarni chet el ilmiy safariga chiqishi juda og'ir kechardi, Xalqaro simpozium va konferensiyalarga yuborilayotgan delegatsiya tarkibi markaz orqali shakllanar va markaz istasa milliy respublika vakili ming chigirikdan o'tkazilib delegatsiya tarkibiga kiritilar edi. Markazning on'anaga aylangan bu shl uslubi AAsqarovga hech tinchlik bermas edi. 1988 yilda A.Asqarov tashabbusi va rahbarligida Fransiyada O'zbekistonning qadimti davr arxeologiyasi bo'yicha uyushtirilgan simpozium ishida birinchi bor respublika arxeologlarning delegatsiyasi musgaqil faol qatnashdi. SHundan so'ng O'zbekiston arxeologlari markaz rahnamoligisiz chet el ilmiy safarlariga boradigan bo'lishdi. Hozirgi kunda o'zbek arxeologlari Fransiya, AQSH, YAponiya, Germaniya, Polsha arxeolog mutaxasislari bilan bevosita ilmiy shartnomalar asosida ish olib bormokdalar. Bu

ishlarda AAsqarovning ushbu mamlakatlar olimlari bilan bo'lgan shaxsiy ilmiy aloqalari muqim ahamiyat kasb etmokda.

A Asqarov jamoatchi olim, fan yutuklarining tolmas tashviquotchisi hamdir. O'zbekiston FAning "O'zbekistonda ijtimoiy fanlar", "Fan va turmush" jurnallarida bosh muharrir o'rinbosari". Moskvada chiqadigan "Rossiyskaya arxeologiya" jurnali tahrir hay'ati a'zosi; tarix, arxeologiya, etnografiya sohalariga bo'yicha mutaxassislar tayyorlash maxsus ilmiy kengashining raisi sifatada mexnat qilmoqda.

12- chakirik Respublika Oliy kengashi deputata bo'lib saylandi, Oliy kengashning "Fan, xalq talimi, madaniy merosni asrash" qo'mitasi raisi bo'lib xizmat qildi.

1987-1992 yillarda O'zbekiston FAning tarix, tilshunoslik va adabiyotshunoslik bo'limining akademik-kotabi, akademiya prezidiumi hay'ati a'zosi bo'lib ishladi. 1991 yildan O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Tarix instituti direktori, 1994 yil iyulidan hozirgacha O'zbekiston Fanlar Akademiyasi prezidiumi a'zosi, tarix, tilshunoslik va adabiyotshunoslik bo'limining raisi vazifalarida ishlab kelmokda.

A.Asqarovning e'loi qilingan ilmiy va ilmiy - ommabop ishlarining ro'yxati.

1961

1. **Pamyatniki** epoxi bronzы v rayone Maxan-dari // Nauchnye raboty i soobsheniya, kn. 4. Tashkent, 1961. - S.272-281.

1962

2. Otkrytie poseleniya epoxi bronzы // ONUz. - 1962. - № 1. - S.68-69.

3. Kultura Zamanbaba v nizovyax Zarafshana // ONUz. - 1962. - № 11 -S.59-65.

4. Pamyatniki andronovskoy kultury v nizovyax Zarafshana // IMKU.

- 1962 - Выр. 3. S. 28-41.

5. **Nizovya** Zarafshana v epoxu bronzы. Avtoref. kand. diss. L., - 1962. -19 s.

1963

6. Poselenie Zamanbaba // KSIA AN SSSR. - 1963. - Выр. 93. S.85-92.

1964

7. Arxeologicheskaya poezdka v severo-zapadnuyu chast Karshinskoy stepi // IMKU. - Выр. 5. - S. 28 - 36.

1965

8. **Новые** находки andronovskoy kultury v nizovyax Zarafshana // IMKU. - 1965. - Выр. 6. - S. 53-60.

1966

9. Pervobytnaya kultura i vzniknovenie oroshaemogo zemledeliya v nizovyax Zaravshana // AN UzSSR, In-t istorii i arxeologii. Tr. Maxandarinskogo otryada Uzbekistanskoy arxeologicheskoy ekspeditsii.

- Tashkent: Fan, - 1966. - Kn. I. - S. 257-265. Sovmestno s Gulyamovым YA.G., Islamovым U.I.

32

1967

10. 50 let Sovetskoy arxeologii v Uzbekistane // YUbileynaya nauch. sessiya AN UzSSR. - Tashkent, - 1967. - S. 103-106.

11. Perexod k metallu. Vozniknovenie zemledeliya i skotovodstva (Rodovoe obshchestvo) // Istoriya Uzbekskoy SSR. Tom I, Tashkent, 1967. -S. 43-46.

12. Osvoenie bronzы. Razvitie zemledeliya i skotoovodstva. Perexod k otsovskomu rodu (rodovoe obshchestvo). Istoriya Uzbekskoy SSR. Tom I, Tashkent, 1967. - S. 46-55.

1968

13. Raskopki mogilnika epoxi bronzы v Muminabade // IMKU. - 1968 -выр. 8. - S. 56-62.

1969

14. Drevneyshie sledы prebyvaniya cheloveka na territorii Samarkanda // Istoriya Samarkanda. - Tashkent, 1969. - T. I. - S. 8-22. Sovmestno s Levom DN.

15. Pervobytnaya kultura Samarkanda. TD ob'edinen.nauch.sess. posvyashch. 2500-letiyu Samarkanda. Samarkand, 1969. - S. 14-17. Sovmestno s Levom DN.

1970

16. Pervobytnaya kultura goroda Samarkanda // Istoriya SSSR, 1970. -№ 1. - S. 144. Sovmestno Lev D.N.

17. Mogilnik epoxi bronzы v Muminabade// KSIA AN SSSR. - 1970 -Выр. 122. - S. 64-66.

18. Drevneyshee proshloe Samarkanda // ONUz. - 1970. - № 9. - S. 79-84. Sovmestno Tashkenbaevым N.X.

19. Qoʻhna Afrosiyob soʻzlagay... // SHarq yulduzi. - 1970. - № 5. - 159-171 betlar AR.Muxamedjonov bilan hamkorlikda.

1971

20. Poselenie drevnix zemledelsev na yuge Uzbekistana // ONUz. -1971 - № 8. - S. 40-43.

21. Andronovo madaniyati // Uzbek Sovet ensiklopediyasi. - Toshkent,

'''32

1971. - B. 370^

22. Samarkand territoriyasida odamzot hayotining eng qadimgi izlari // Samarqand tarixi. Toshkent, 1971. - T. I. - B. 21-30 Lev D.N. bilan hamkorlikda.

L 1972

23. Metallicheskie izdeliya iz poseleniya Sapallitepa (rezultaty ximicheskogo analiza) // ONUz. - 1972. - № 10. - S. 59-64. Sovmestno Bogdanova-Berezovskoy I.V.

24. Uspexi arxeologov Uzbekistana v izuchenii kamennogo veka// Kamennyy vek Sredney Azii i Kazaxstana. Tashkent, - 1972. - S.3-5.

25. Raskopki na poselenii Sapallitepa // AO-1972. - S.510-511.

26. K voprosu o sotsialnom stroe drevnix zemledelsev yuga Uzbekistana // TD SPIPAI. 1971. Arxeolog.seksiya. -M., -1972. -S.287-288.

27. Razvitie arxeologicheskoy nauki v Uzbekistane // ONUz. -1972. - № 11-12. -S.97-109.

1973

28. Sapallitepa. Tashkent: Fan, 1973. -172 s.

29. Forum arxeologov // ONUz. - 1973. -№ 8. -S. 51-52. Sovmestno s Islamovym U.

30. K voprosu o vydelenii kultury Sapalli // TD SPIPAI. -Tashkent, 1973. -S. 21-23.

31. Nekotorye itogi polevyykh arxeologicheskix rabot Instiguta arxeologii AN UzSSR v 1971 g. // IMKU. -Выр. 10. -S. 3-10.

32. Buxoroning ibtidoiy davr tarixidan lavhalar. -Toshkent, 1973. -24 b.

1974

33. K voprosu o vydelenii kultury Sapalli // Drevnyaya Baktriya. -L., 1974. - S. 26-32.

² Uzbek Sovet ensiklopediyasishigg barcha 14 jildida 80 ga yaqin ilmiy-ommabop makrla e'lon qilingan.

33

34. Uspexi arxeologov Uzbekistana v izuchenii kamennogo veka // IMKU. - 1974. -Выр.Р. -S.9-14.

35. Arxeologiya // Nauka v Uzbekistane, - Tashkent, 1974. -S. 199-220 Sovmestno s Gulyamovym YA.G., Buryakovym YU.F.

36. Arxeologiya fanining vazifasi nima ? // Arxeologlar hikoya qiladilar. Toshkent, 1974. -B.5-8.

1975

37. Arxeologicheskie materialy po istorii zemledeliya s Uzbekistane; // Khozyaystv, -kult.traditsii narodov Sredney Azii i Kazaxstana. -M., 1975. -S.95-101.

38. Ximicheskiiy sostav metallicheskih predmetov iz poseleniya Sapallitepa // IMKU. -1975. -Вып.12. -S.72-84 Sovmestno s Abdurazakovым A.A., Bogdanova-Berezovskoy I.V., Ruzanovым V.

39. Новые памятники эпохи бронзы на территории Северной Бактрии // АО. - 1974. -S.496-497.

40. Этапы развития древнеземледельческой культуры на юге Узбекистана // NOSA. -1975. -TD, ch.1. -S.115-116.

41. Захоронения у стоянки Кулбулак // Первобытная археология Сибири. - L., 1975. -S. 138-141.

1976

42. Расписная керамика Джаркутана // Бактрийские древности. -M., 1976. - S.17-19.

43. Бронзовый век южного. Узбекистана: (К probl. развития локальных очагов древневост. цивилизации): Автoref.diss.dokt.ist.nauk. -M., 1976. - 44 s.

1977

44. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистана. - Tashkent: Fan, 1977. -232 s.

45. Типы оседлых поселений бронзового века и истоки урбанизации на юге Узбекистана // Древние города: MVK. -L., 1977. -S.10-11.

3 4

46. Южный Узбекистан во II тыс. до н.е. // Международный симпозиум по этн. probl. древней истории Центральной Азии. TD sov. ученых. -M.,1977.- S.8-11.

47. Некоторые данные о металлических сплавах с поселения Сапаллитоп // ONUz.-1977.- № 6. S. 56-59. Sovmestno s Ruzanovым V.).

48. Afrasiab: nujen muzey pod otkryтым небом // Leninskiy put. -

1977. -24 avgusta. Sovmestno s Buryakovым YU.F., SHishkinoy G.V.

1978

49. Некоторые итоги и задачи археологических исследований в Узбекистане // ONUz. -1978. -№ 8. -S.14-23.

50. Некоторые итоги и перспективы развития археологии в Узбекистане // S A - 1978. -№ 2. -S.5-22. Sovmestno s Buryakovым YU.F.

51. Новые данные о поселении Кучуктепа // ONUz. -1978. -№11. -S.51-56. Sovmestno s Aminovым V., Raxmanovым U.

52. Раскопки могилника Джаркутан (результаты работ весной 1975 г.) // IMKU. -1978. -Вып.14. -S.19-42 Sovmestno s Abdullaevым B.

53. Afrosiyob: kashfiyotlar, topilmalar, muammolar // Fan va turmush. -

1978. -№ 3, B. 10-11 Buryakov YU.F., SHishkina G.V.lar bilan hamkorlikda.

1979

54. Poselenie Kuchuktepa. -Tashkent: Fan, -1979. -112s. Sovmestno s Albaumom L. I.

55. VNS po probleme "Antichnaya kultura Sredney Azii i Kazaxstana" // ONUz, -1979. -№10. -S. 61-63. Sovmestno s Filanovich M.I.

56. К вопросу о происхождении культуры племен с расписной керамикой эпохи поздней бронзы и раннего железа // Etnografiya i arxeologiya Sredney Azii. -M. - 1979. -S.34-37.

57. Toshkentning yoshi aniklandi // Fan va turmush. -1979. -№4. -B.8-10.

58. Issledovaniya SHerabadskogo otryada // AO. -1978 g. -S.544-545. Sovmestno s Aminovым V.

3 5

59. Toshkentning yoshi nechada ? // Sovet O'zbekistoni. -1979. -11 fevral. Buryakov YU.F., Filanovich M.I.lar bilan hamkorlikda.

60. Arxeologiya Sredney Azii i Kazaxstana v svete noveyshix issledovaniy // Sovetskaya arxeologiya v 10-y. pyatiletke: Vsesoyuz. konf... 18-20 aprelya. TD. -

L., -1979. -S.33-35 Sovmestno s Massonom V.M., Akishevym K.A, Atagarrievym E.A, Kojomberdievym I.K., Negmatovym N.N.

1980.

61. Храм pervobytnых zemledelsev na ioi~e Uzbekistana // ONUz.-1980.- № 7,- S. 33-34.

02. Новые данные¹ o zarojdenii gorodskoy kultury na territorii Tashkenta // ONUz.-1980,- № 6,- S.23-30. Sovmestno s Filanovich M.I.

63. Raskopki poseleniya Djarkugan // OL.- 1979.- S. 444-445.

64. Некоторые проблемы kompleksnogo izucheniya etnogeneza uzbekskogo naroda // ONUz. 1980.- № P.- S. 26-34. Sovmestno s Alekseevym V.P., Xodjayovym T.

65. Ajoyib topilma // Fan va turmush. 1980.- № 9.- B. 18-19.

1981

66. Arxeologiya v Uzbekistane. Noveyshie otkrytiya // ONUz.-1981.- № 2. - S. 42-49 Sovmestno s Muxamedjanovym AR.

67. K peredatirovke kultury Zamanbaba // Kultura i iskusstvo drevnego Xorezma. M., 1981.- (5.99-110.

68. Arxeologiya // Uzbekskaya SSR. - Tashkent, 1981. - S. 346-347.

69. YUjnyy Uzbekistan vo P tys. do n.e. // Etnicheskie probl. istorii. Sent. Aziya v drevnosti: (P tys. do n.e.).- M., 1981.- S.167-179.

70. Predislovie (obzor statey)//IMKU.-1981.- Выр.16.-S. Z-o.

1982

71. Еще раз o drevnix putyax na yuge Uzbekistana // ONUz.-1982,- № 7,- S.46-49.

5 6

SURXONDARYODA OLIB BORILGAN TADQIQOTLAR

O'zbekistonning janubidan topilgan arxeologik yodgorliklarni o'rganishda bronza davri madaniyati xam muxim ahamiyatga ega. Bronzaning kashf etilishi ibtidoiy jamoa xo'jaligida buyuk o'zgarishlarga olib keldi. Bu insoniyatning iqtisodiy hayotigagina emas, balki siyosiy, madaniy, ma'naviy hayotida ham tub o'zgarishlar yasadi.

Bronzaning tarkibi mis va qalay qorishmasidan iborat bo'lgan. Eng yaxshi bronza tarkibida 90% mis va 10 % qalay bo'lgan. U dastlab miloddan avvalgi III-ming yillik oxirlarida Mesopotamiyada (ikki daryo oralig'ida) kashf etilgan. Bronza qurollar qattiq va ularga ishlov berish oson bo'lganligi uchun mis qatronlarni siqib chiqardi. Shuningdek, bronza misga nisbatan past haroratda erigan. Mis 1000 gradus haroratda erisa, bronza 700- 900 gradusda erigan. Uning bunday past haroratda erishi, uning bir xo'jalikda qurollar yasash imkonini bergan. Bu esa mehnat jangovor qurollarning turi ko'payishiga va samaradorligining oshirilishiga olib kelgan⁷.

Bronza maxsus qalin sopol idish tigellarda sopol qoshiqlar orqali tosh va sopol dan yasalgan qoliplarga solingan. Bronza qoliplarga yopishib qolmasligi uchun qoliplarga mumiy o surtilgan va bronza qolipdan oson ajralgan⁸.

Jahon tarixida bronza davri miloddan avvalgi 3-ming yillik oxirlaridan boshlanadi. Bu davrda (qadimgi Misr, Mesopotamiya, Kichik Osiyo va Eronning janubiy g'arbida davlatlar shakllanib, quldorlik jamiyati keng ravnaq topgan edi. O'zbekiston hududida esa bu davr miloddan avvalgi II- ming yillikning I-choragida boshlanib, miloddan VIII-avvalgi asrlargacha davom etadi. Shuningdek, jamiyat taraqqiyoti ham o'ziga xos tarzda davom etgan. O'rta Osiyoning janubiy hududlarida dehqonchilik madaniyati ravnaq topib, ilk shahar madaniyati tarkib topdi. O'zbekistonning janubiy-sharqiy va markaziy hududlarida, ya'ni Samarqand, Farg'ona, Qarshi vohasi hududlarida ilk shahar madaniyati izlari so'nggi bronza

⁷ Аскарлов А.А. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы на юге Узбекистана. – Т. 1977. –44 б

⁸ Аскарлов А.А Ширинов Т. Ранняя городская культура эпохи бронзы юга ССредней Азии. – Самарканд 1993. – 34 б.

davriga kelganda vujudga keldi. Ungacha bu hududlarda ko'chmanchi chorvadorlar madaniyati, ya'ni Andronova va Tozabog'yob madaniyatlari aholisi yashab kelgan. O'zbekistonning shimoliy hududlarida cho'l va dasht chorvachilik xo'jaligi etakchi o'rinni egallagan. Zarafshon, Sirdaryo va Amudaryo etaklarida so'nggi bronza va ilk temir davrida chorvador qabilalar o'troqlashib, sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullana boshlaganlar va ular asosida qishloqlar tashkil etiladi⁹.

Bronza davri xo'jaligining eng katta yutug'i bu dehqonchilik madaniyatining keng yoyilishi va uning chorvachilikdan ajralib chiqishidir. Bu jarayon fanda birinchi ijtimoiy mehnat taqsimoti deb nomlanib, miloddan avvalgi II ming yillikning ikkinchi yarmida sodir bo'lgan. Ijtimoiy mehnat taqsimoti birinchi navbatda tabiiy sharoit muhitidan kelib chiqib ixtisoslashdi. O'rta Osiyoning janubiy va janubi-g'arbiy tumanlari dehqonchilik madaniyatining o'choqlariga aylandi

Uning cho'l va dasht zonalarida chorvadorlar va O'rta Osiyoning shimoli-sharqiy, shimoli-g'arbiy, markaziy hududlaridagi daryo etaklarida dehqonchilik madaniyati tarkib topa boshladi. Dehqonchilikdan chorvachilikning alohida soha bo'lib ajralib chiqishi qonuniy zaruriyat bo'lgan.

Bronzadan yasalgan qurollari mehnat unumdorligini oshirdi, takroriy sug'orma dehqonchilik asosida doimiy qishloqlar ko'paydi, yangi erlar o'zlashtirildi, hunarmandchilikning yangi sohalari-metallurgiya, zargarlik rivojlandi, kulolchilikda charxdan foydalanishga o'tildi, uy-joy qurilishida g'ishtdan foydalanildi, mustahkam mudofaa devorlari qurila boshlandi chorvadorlar zonasida ot va eshakdan transport sifatida foydalanishga o'tildi. Gupchakli g'ildirakli aravalar paydo bo'ldi, jamiyat hayotida monogam oila tarkib topib, hayotda otalar etakchi bo'la boshladilar, patriarxat davri boshlanib, urug' jamoasi emirila boshladi va ilk davlatchilik elementlari shakllandi. Qo'shni mamlakatlar, ayniqsa chorvadorlar bilan dehqonlar o'rtasida tovar ayirboshlash

⁹ Сагдуллаев А.С. Лушпенко О.Н. Кеш воҳасидаги энг қадимги шаҳар. // Кеш-Шахрисабз тарихидан лавҳалар. 2-лавҳа. Т. 1998 44-62 бб.

jonlandi. Qabilalararo munosabatlarda bir-biri bilan aralashib yangi etnoslarni shakllanishi va ularning

madaniyatlari vujudga kelgan hozirda Qirg'iziston, Qozog'iston cho'llarida yashagan Androva madaniyati chorvadorlari miloddan avvalgi II-ming yillorrtalarida O'zbekistonning shimoliy va janubiy hududlariga kirib borib mahalliy aholi bilan aralashib ketgan va Tozabog'yop Kayrokkum madaniyatlar shakllangan.

O'zbekiston hududidagi bronzn davri yodgorliklarini o'rganishda S.P.Tolstov, V.I.Masson, YA.Gulomov, M.A.Itina, YU.A. Zadneprovskiy. T.Shirinov B.Matboboev, B.Abdullaev va boshqalar olib borgan tadqiqotlari diqqatga sazovordir¹⁰.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek O'zbekistonning janubiy hududlarida ya'ni Surxondaryo viloyati hududida ilk bronza davridayoq qadimgi dehqonchilik manzilgohlari keyinchalik shakllanishida Murg'ob vodiysidan kelgan dehqonlar asosiy o'rinni egallaganlar. Ular dastlab Sherobod cho'lini Sopollitepa qishlog'ini tashkil qilganlar. Keyinchalik sopolliktepaliklar sekin Ko'hitong va Boysun tog' etaklari bo'ylab shimoliy-sharqiy va Sherobod vodiysi bo'ylab dehqonchilarning kishloklarini tashkil qilganlar. Tadqiqotchilar bu yodgorliklarni o'rganib ularni Sopolli madaniyati nomi ostida fanga kiritganlar.Sopolli madaniyati 5ta xronologik bosqichga bo'linadi. O'zbekistonlik arxeologlarni keyingi yillarda olib borgan tadqiqotlari natijasida Sopollitpa yodgorligining xronologik sanasini ancha aniqlashtirdilar ya'ni radiokarbon va madaniyatlararo tarqalgan ashyolar tahlil 300-400-yilga qadimiylashtirdilar. Ular quyidagilardan iborat:

1. Sopolli bosqichi-miloddan avvalgi 2150-1900 yillar.
2. Jarqo'ton bosqichi - miloddan avvalgi 1900- 1600 yillar.
3. Ko'zali bosqichi-miloddan avvalgi 1600-1450 yillar.
4. Mo'lali bosqichi - miloddan avvalgi 1450-1250 yillar.

¹⁰ Сагдуллаев А.С ва бошқ. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. – Т. 2000. – 44 б

5. Bo'ston bosqichi-miloddan avvalgi 1250- 1000 yillar¹¹

Sopollitepa manzilgohi Surxondaryo viloyatidagi Sherobod cho'lida Qaynarbuloqsoy hududida topilgan. U Termiz Shahridan 70 km shimoliy-g'arbida joylashgan. Bu manzilgoh SHerobod cho'lini o'zlashtirish jarayonida 1968 yilda L.I.Albaum tomonidan ro'yhatga olingan. Uning tadqiqot ishlari bilan 1969-1974 yillarda A.Asqarov shug'ullangan. Ushbu madaniyatga tegishli 20 dan ortiq yodgorliklar topilgan.

Sopollitepa koridorsimon bloklar sistema asosida qurilgan uch qator mudofaa devorlari bilan o'rab olingan yirik qishloq bo'lgan. Uning umumiy maydoni 4 ga. ga yaqin. Katta qismi paxta maydoniga qo'shib yuborilganligi sababli, faqatgina, uning markaziy qal'a qismi saqlanib qolgan. U kvadrat 82 x82 metr bo'lgan istehkomdir. Qal'a mudofaa devorlari qalinligi 2 metr bo'lib, somon qo'shilgan xom g'ishtdan qurilgan. Mudofaa devorlari to'lg'ama tuzoq usulida ishlanib, aniq o'lchamli koridorsimon bloklarga bo'lingan. Tashqi bloklar yolaklar orqali ichkaridagi uy-joylar bilan birlashtirilgan. Ichki bloklar mudofaa tizimida qopqon vazifasini bajargan. Tashqaridan qaraganda ular qal'aga olib kiradigan darvozalarga o'xshaydi. Lekin qal'aga bitta darvoza orqali kirilgan. U qal'aning janubiy tomonida joylashgan. Qolganlari «yolg'on darvoza» bo'lgan. Bu juda murakkab me'moriy reja edi. Mudofaa tizimidagi ichki va tashqi bloklar Sopollitepaning keyingi bosqichlarida urug' xilxonasi, uy-joy, kulolchilik ustaxonasi kabi maqsadlarda foydalanishgan.

Sopollitepada 3 ta qurilish bosqichi aniqlangan. Sopollitepaning 2 ta qurilish davri bir xil materiallar bergan. YUqori 3-chi qurilish davrida ba'zi o'zgarishlar mavjud. Bu o'zgarishlar Jarqo'ton yodgorligining quyi qatlami materiallariga o'xshaydi. SHuning uchun Sopollitepadagi 2ta quyi qatlam «sopolli bosqichi», uning yuqori qatlami «Jarqo'ton» bosqichi deb yuritiladi¹².

Sopollitepadagi uy-joylar 8 ta kvartallarga bo'lingan. Kvartallar urug'lar asosida shakllangan. Qishloqda 8 ta urug' jamoalari yashagan. Har bir kvartaldan

¹¹ Ширинов Т.Ш Орудия производства и оружие эпохи бронза Среднеазиатского Междуречья. – Т. 1986. – 24

¹² Исомиддинов М. Сополга битилган тарих. – Т. 1993. – 44 б

2-3 yoki undan ortiq xumdonlar va non pishiriladigan maxsus tandirlar, uy-joy qoldiqlar va 158 ta qabr topilgan. Olimlar fikricha, qishloq aholisi 155-315 kishidan iborat bo'lgan. Har bir oila o'z uyiga ega bo'lgan. Uylar orasida ko'chalar bo'lib, ular markaziy maydoni bilan bog'langan. Uylar ko'p xonali qilib, xom g'ishtdan qurilgan. Devorlari bir necha bor somonli loy bilan suvalgan, pollarga alebastr aralashgan loy yoki sopol siniqlari yotqizilgan. Xonalarda o'choq va sandal izlari saqlangan. Har bir xonadonning omborxonasi bo'lgan. Uylar ichidan toshdan, suyakdan, bronzadan yasalgan turli xil mehnat qurollar, sopol idishlar, turli taqinchoq va bezaklar urug' va qabilalarning muhrlari, tamg'alari topilgan. Ular mahorat bilan ishlangan. Topilmalar o'sha davr aholisining yuksak madaniy-xo'jalik rivojiga erishganligidan guvohlik beradi.

Sopollitepada sopol buyumlar kulolchilik charxida ishlanib, ikki yarusli xumdonlarda pishirilgan. Sopol idishlar jarangdor, yupqa qilib ishlangan. Ularning turli xil shakllari oyoqli vazalar, qadahlar, jo'mrakli choynaklar, ko'zalar, xurmachalar, konussinmon kosalar, tog'oralar, xuralar, sopol tagkursi, qozonlar topilgan. Bular kulolchilikning rivojlanganligini ko'rsatadi. Sopol buyumlardi naqshlari yo'q, faqat ko'zali bosqichining ko'zalarida gorizontaal chiziqlar uchraydi.

Sopollitepada to'qimachilik sohasi ham rivojlangan. Bu haqda mozorlardan topilgan kiyim mato qoldiqlari darak boradi. Bu kiyim qoldiqlari ilmiy laboratoriya tekshiruvidan o'tkazilganda ulaming paxta va tabiiy ipakdan ishlanganligi ma'lum bo'lib, paxtachilik va ipakchilik bronza davrida ham mavjud bo'lganligini isbotlaydi. Bu esa ipakning bundan 2000 yil oldin Xitoydan O'rta Osiyoga kirib kelgan, degan fikrni rad qilib O'zbekistonda paxtachilik va ipakchilik 3,5 ming yillik tarixga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Bu davrda metall bilan ishlash hunarmandchiligi ham taraqqiy etgan. Arxeologik qazishmalar vaqtida yuzlab metall buyumlari uy-ro'zg'or buyumlari, harbiy qurollar, surnadonlar, to'g'nag'ich, hayvon ma'budalari, turli naqshdor tamg'a va muhrlar topilgan.

Sopollitepa manzilgohida urug' jamoa a'zolari olamdan o'tsa, uni o'zi yashagan xonaning poli ostiga eshik yoki o'choq oldiga yoki xona devorlari ostiga ko'mish odati bo'lgan. Agar o'lgan kishi jamoada nufuzli obro'ga yoki urug' oqsoqoli bo'lsa, u holda uning qabri unga ajratilgan xonaning qoq o'rtasida bo'lgan. Sopollitepaliklar abadiy o'limga ishonmaganlar, «narigi dunyo» tushunchasi ularda kuchli bo'lgan. SHuning uchun o'lgan kishi qabriga o'z shaxsiy mulki va urug'doshlar keltirgan idish-tovoqlardagi ovqatlar bilan ko'mganlar. Har bir qabrda 2-3 tadan to 50 tagacha buyumlar topilgan. YOsh bolalar qabrlarida idishlar kam, o'smirlar qabrida esa 5-6 ta buyumlar topilgan. Ularning aksariyati sopol idishlar bo'lgan. Mozorlarda bronzadan ishlangan turli xil taqinchoqlar diniy e'tiqod bilan bog'liq bo'lgan tumor-muhrlar, qimmatbaho toshlardan ishlangan turli xil munchoqlar, oltin munchoqlar, kumush halqa va bilakuzuklar, orkaklar mozorlarining ba'zilar chaqmoqtoshdan ishlangan paykonlar, bronza oybolta, pichoq, mitti tesha, bolta va boshqalar, ayollar qabrida urohuq tosh, bronza surmadonlar, surmatosh, to'qimachilik asboblari, turli shakllardagi bronza to'g'nog'ichlar, bronza oynalar, igna, bigiz, mitti kurakcha va boshqa narsalar qo'yilgan.

Ba'zi yaxshi saqlangan mozorlarda lux, bug'doy va arpa poyasidan to'qilgan savatchalar, teridan, yog'ochdan ishlangan idishlar, marmar toshdan yo'nilgan hurmachalar topilgan. Mozorlarga qo'yilgan buyum-larga qarab, marhumning duradgor usta, bo'zchi, kulol, tabib, podachi, ovchi, jangchi yoki chilangar ekanligini aytish mumkin. Qabrga erkaklar o'ng biqini bilan, ayollar chap biqini bilan yotqizilgan, oyoq-qo'llari esa, g'ujanak holda ko'milgan¹³.

Ba'zi mozorlarga bedarak yo'qolgan jamoa a'zosining ruhi ko'milgan. Bunday qabrlarga odatda odam haykalchasi yoki qo'y va echki bolasi ko'milgan. Bunday qabrlar fanda «kenataf» deb ataladi.

Qabrlardan topilgan predmetlarga qaraganda, urug' jamoalarini boshqarishda hali ayollarning mavqei katta bo'lgan, ya'ni ularning an'anaviy obro'yi jamoada saqlanib qolgan. Sopollitepadagi har bir kvartal xilxonasida boy ayol qabri bor.

¹³ Аскарлов А. А. Сапаллитепа – Т. 1973. – 67 б

Faqat shunday qabrlardagina bronza yoki toshdan yasalgan tumor-muhrlar chiqqan. Ular urug' totemlari haqidagi diniy tasavvurlarning namunasi hisoblanadi.

Sopollitepada hayot taxminan 200-250 yillar davom etgan. Keyinchalik uning aholisi yangi erlarni o'zlashtirish maqsadida sharq tomon siljib, hozirgi SHerobod yaqinidagi Oqqo'rg'on qishlog'i hududiga ko'chib borganlar.

Jarqo'ton yodgorligi sopollitepaliklar asos solgan ilk shahar hisoblanadi. U Bo'stonsoyning chap sohilida joylashgan bo'lib, 100 ga maydonni egallagan. Bu erning aholisi ham dehqonchilik bilan shug'ullanib, kamida 500 yil shu erda yashaganlar.

Jarqo'ton uch qismdan iborat. Uning arki 3ga maydonni egallagan. Arkning atrofi mudofaa devorlari bilan o'rab olingan. U erda hukmdorning qarorgohi joylashgan. Mudofaa devori somon qo'shilgan xom g'ishtdan ishlangan. Devor qalinligi 3m, balandligi 5-6m bo'lgan. Hozirda saqlangan qismi 1 m gacha boradi. Devor kvadrat shaklidagi burjlar bilan mustahkamlangan. Arkka kirish darvozasi janub tomonda joylashgan. Arkda hukmdor saroyi alohida ajralib turadi. Saroyda ko'p oddiy xonalar bo'lib, saroy maydonida 20kv.m supa joylashgan. Arkning sharqiy tomonida bir necha uy-joy massivlari topilgan. Ular 1,5 m qalinlikdagi supa ustiga qurilgan. Bu erda ko'p xonali hovlilar ochildi. Har bir hovlida 2-3 ta o'choq topilgan.

SHaharning janubida 20 ga maydonni egallagan shahar qabristoni topilgan.

Jarqo'tonda otashparastlik ibodatxonasi ochildi. Ibodatxonaning atrofi 4,5 m qalinlikdagi devor bilan o'rab olingan. Ibodatxona ikki qismdan - muqaddas ziyoratxona va xo'jalik qismlaridan iborat bo'lgan. Ibodatxonaning muqaddas qismi kvadrat shaklida bo'lib, 35x35 metrga teng. Uning tarkibida muqaddas olov, muqaddas quduqlar, altarlar va 4 bosqichga doir tosh yo'laklar bo'lgan. Bular erga, suvga, olovga sig'inish unsurlari hisoblanadi. Ibodatxonaning ishlab chiqarish-xo'jalik qismida muqaddas ichimlik-xaoma tayyorlaydigan xona, mozor aventarlari tayyorlaydigan ustaxonalar va ibodatxonaga ajratilgan oziq-ovqat ombori joylashgan¹⁴.

¹⁴ Аскарлов А.А Ширинов Т. Ранняя городская культура эпохи бронзы юга Средней Азии. – Самарканд 1993

Ibodatxonada xech kim yashamagan, u faqat olovga sig‘inish bilan bog‘liq bo‘lgan urf-odatlar va diniy marosimlar o‘tkazish markazi bo‘lgan¹⁵.

Hozirgi kunda Janubiy O‘zbekiston territoriyasida 20 dan ortiq bronza davri yodgorliklari topilgan. Bular Jarqo‘ton, Bo‘ston, Kultepa, Maydatepa, Mo‘lali va boshqalar bo‘lib, ular asosan, Surxandaryo viloyatining Sherobod, Jarqo‘rg‘on va Sho‘rchi hududlarida joylashgan. Bu yodgorliklarni o‘rganish natijasida Sopollitepa madaniyati qadimgi Sharq sivilizatsiyasining ajralmas bir qismi ekanligini ko‘rsatdi.

Bronza davrida yog‘ochdan yasalgan omoch va so‘qalarga temir tish kiydirilgan. Ilk temir davrida ko‘pgina yangi mehnat qurollari yaratilgan. Egov paydo bo‘lgan, uning kesiklari bir qator bo‘lib, hozirgi egovlarga o‘xshash bo‘lgan. Egov skanja bilan birgalikda ishlatilgan. Qulf va kalitlar paydo bo‘lgan. Ular egovlab yasalgan. Ilgarigi davrlarda kulf va kalitlar qadimgi SHarqda bo‘lib, u yog‘ochdan ishlangan.

Ilk temir davrida temir o‘roq randalar chaqmoqtosh o‘roq randalarni siqib chiqargan. Temir o‘roq randa yoysimon o‘tkir yupqa temirdan iborat bo‘lib, ikki uchiga dasta o‘rnatilgan. U poya po‘stini shilish va yog‘och randalash uchun ishlatilgan.

Harbiy qurol aslahalarning asosiy turlari: qilich, xanjar, nayza, cho‘qmor, jang boltalari bronza davridayoq ishlatilgan bo‘lsada, temir davriga kelib uning faqat metalli o‘zgargan. Bu davrda yoy o‘qlarini yasashda temir kam ishlatilgan, asosan bronzadan ishlangan.

Oddiy temir harbiy va mehnat qurollari uchun yumshoqlik qilgan. YUnon tarixshunosi Polibey mil.av. III asrda galliyalik jangchilar qilich bilan bir urgandan keyin uni oyog‘i bilan to‘g‘rilab olishga majbur bo‘lganligini yozib qoldirgan.

Biroq ko‘pchilik davlatlarda ilk temir davridayoq po‘lat ishlatila boshlangan. Temirni o‘choqda bir necha marta qizitib va uni bir necha marta sovuq suvga solib toblab po‘lat xosil qilingan.

Qadimgi Baqtiriyada o'troq dehqonchilik madaniyati bronza davridanoq shakllana boshlagan. Bu madaniyat Sopollitepa, Jarqo'ton, Kuchuktepa, Qiziltepa, Bandixon-1, Tallashkan, Jondavlattepa kabi qadimgi dehqonchilik madaniyati yodgorliklari asosida o'rganilgan.

Kuchuktepa Qadimgi Baqtriya hududida so'nggi bronza davriga oid yodgorlik hisoblanadi. U Surxandaryo hududidagi Ulanbuloqsoy sohilida joylashgan. Yodgorlikni 1962 yilda L.I.Albaum tomonidan topilgan va 1963-1967 yillar davomida tadqiqot ishlari olib borilgan. Bu tadqiqotlar natijasida uning 2 ta rivojlanish bosqichi ko'rsatilgan. Keyingi yillarda Baqtriya arxeologik otryadining olib borgan tadqiqotlari natijasida yodgorlik sanasi ancha aniqliklar kiritildi va 4 ta qurilish bosqichi aniqlandi:

Kuchuk 1 -miloddan avvalgi 1300-1000 yillar

Kuchuk 2 -miloddan avvalgi 1000-850 yillar

Kuchuk 3 -miloddan avvalgi 850-650 yillar

Kuchuk 4 - miloddan avvalgi 650-450 yillar

Ilk antik davrga o'tish -mil. av. 450-350 yillar¹⁶

Kuchuktepada 8 metr qalinlikdagi g'isht supa ustiga qurilgan atrofi mudofaa devorlar bilan o'ralgan qasr ochildi. Uning quyi uch qatlami so'nggi bronza davriga oid. Bu qatlamlardan qo'lda ishlangan rangli naqshli sopollar va Sopolli madaniyatiga oid charxda ishlangan sopol idishlar topildi. Toshidan, terrakotadan ishlangan urchuqlar, suyakdan ishlangan igna, bigiz, uchburchak shaklidagi bronza o'q uchlari topilgan.

Kuchuk-2 qatlamidan birinchi bor ikki parrakli asosi zo'g'atasimon qilib ishlangan bronza paykonlar topilgan. Bu davrda kulolchilik charxida ishlangan sopol idishlarning yangi formalari paydo bo'lgan. Ular bankasimon, silindr-konus shaklida bo'lib, gardishi qarmoqsimon qilib ishlangan. Bunday sopol xillari so'nggi bronza yodgorliklarida umuman uchramaydi. SHu sabab Kuchuk II qatlamini olimlar so'nggi bronza davridan ilk temir davriga o'tish davri deb

¹⁶ Аскарлов А.А. Энг кадимги шахар. Т 2001. - 33 б

hisoblaydilar. 1977 yilda olib borilgan tadqiqotlar natijasida Kuchuk-2qurilish bosqichidan 4 qator mudofaa devori bilan o'ralganligi aniqlangan. Bu devor bronza davridagi devorlardan 2 metr uzoqlikda qurilgan. 4-devor 4,5 metr qalinlikdagi madaniy qatlam ustiga qurilgan. 3-devor esa aylana shakldagi burjlar bilan mustahkamlangan. Kuchuktepaning yuqori qatlamlari, ya'ni Kuchuk 3 va 4 qurilish bosqichlari ilk temir davriga oiddir. Bu davrlarda sopol idishlari faqat kulolchilik charxida ishlangan.

Bronza davri Kuchuktepa arxeologik kompleksi Bandixon qishlog'idagi Maydatepadan ham topilgan. Bu yodgorlikda E.V.Rtveladze tadqiqot ishlari olib borib, Kuchuk 1 va Kuchuk 2 komplekslari Maydatepada mavjudligini isbotladi. Kuchuk 1 va Kuchuk 2 komplekslariga tegishli yodgorliklar Jarqo'tonning yuqori qatlamidan, SHo'rchi tumanidagi Qiziltepa, Bo'yrachitepa, Mirshodi yodgorliklaridan ham topilgan.¹⁷

Mirshodi makonini qazish vaqtida qadimgi dehqon jamoalarining diniy-e'tiqod tushunchalari bilan bog'liq buyumlar topildi. Ular qora toshdan ishlangan 4 ta g'altaksimon mitti «vazachalar», o'g'ir dastasi va qizil qumtoshdan yo'nilgan erkak kishi kallasining haykalchasi edi. Bu mitti buyumlarni G.A.Pugachenkova tabiatda hosil beradigan va uni qayta ishlab chiqaradigan kuchlar g'oyasi bilan, tosh haykalchani esa, hosildorlik bosh xudosi bilan bog'laydi. SHunga o'xshash buyumlar Kuchuktepadan ham topilgan. U erdan qo'shaloq vazasimon mitti isriqdonlar ham topilgan. Ularda olov izlari saqlangan. Ehtimol, bu buyumlarning barchasi dehqon jamoalarining diniy-e'tiqodi bilan bog'liqdir.

Umuman, Kuchuktepaning bronza davri moddiy madaniyati monumental arxitekturasini hisobga olmaganda, Chust madaniyatini eslatadi. Bu esa ular o'rtasida madaniy-xo'jalik va etnik birlik borligini ko'rsatadi.

Sug'diyona o'lkasida dehqonchilik madaniyati ilk temir davridan shakllana boshlagan. Bu madaniyat Ko'ktepa, Sangirtepa, Daratepa, Uzunqir, Lolazor kabi

¹⁷ Ртвеладзе Э.В. Новые древнебактрийские памятники на юге Узбекистана.// Бактрийские древности. – 1976 – 36 стр.

qadimgi dehqonchilik madaniyatlari yodgorliklari misolida hamda To'rtkultepa, Afrosiyob va erqo'rg'onning quyi qatlamlarida topilgan.

Umuman, Sug'diyonaning ilk temir davri yodgorliklari daryo vohalarida tarkib topgan. Bu ayniqsa, Qashqadaryo vohasida aniq ko'zga tashlanadi. Bu erda ilk temir davriga oid bir necha vohalarni ajratib ko'rsatish mumkin. Manzilgohlarni hajmi va vazifalariga ko'ra quyidagi tiplarga ajratiladi.

1. Ark va mudofaa devorlarga ega bo'lgan shahar harobalari (Uzunqir, erqo'rg'on).
2. Qishloqlar (Daratepa, CHiroqchitepa, Beshqo'tontepa).
3. Mudofaa devorlari bilan o'ralgan alohida vazifalarni bajaruvchi manzilgohlar (Ibodatxona bo'lishi mumkin).

Erqo'rg'on - Sug'dning madaniy-iqtisodiy markazlaridan biri hisoblanadi. Uning maydoni 150ga teng. Manzilgohning quyi qatlamidan mil.av.VIII-VII asrlarga oid uy-joy va xo'jalik imoratlarining o'rni aniqlangan. Mil.av. VI asrda uning ichki tomoni kengaytirilib, mudofaa devori bilan o'rab olinadi. Ichki tomonida hashamatli ma'muriy binolar barpo etiladi, lekin ark izlari topilmagan.

Uzunqir - yodgorligi Qashqadaryo viloyatining Kitob tumanida joylashgan. U mil.av. VIII-VII asrlarda kichik manzilgoh sifatida shakllanib, mil.avv.VII-VI asrlarda 70 ga maydonni egallagan vohaning ma'muriy markaziga aylangan. To'g'ri burchakli burj, shinaklarga ega bo'lgan mustahkam mudofaa devoriga ega bo'lgan. Hozirgi paytda mudofaa devorining bir qismi saqlanib qolgan. Mudofaa devorining qalinligi 1,85 metr bo'lib, pastki qismi guvaladan, yuqori qismi esa paxsa va xom g'ishtdan qurilgan.

Yodgorlik 1981 yilda ToshDU O'rta Osiyo arxeologiyasi kafedrasi xodimlari tomonidan o'rganilgan. Tadqiqotlar natijasida topilgan sopol idishlar, bronza va temirdan yasalgan mehnat va harbiy qurollar shaharda hunarmandchilik taraqqiy etganligi aniqladi. Shuningdek, dehqonchilik va bog'dorchilik ham rivojlanganligini isbotladi. Mil.avv. VII-VI asrlarda Navtaka deb atalgan viloyat markazi Uzunqir bo'lgan.

Xulosa

Tarix saboqlari inson uchun namuna bo'ladi, ta'lim tarbiya beradi. Tarix saboqlari xalqni hushyorlikka, o'z ozodligimiz, istiqbolimizni ko'z qorachig'idek asrashga undaydi. Islom Karimov ta'kidlaganidek, "Modomiki o'z tarixini bilgan, undan ruhiy quvvat oladigan xalqni engib bo'lmas ekan, biz haqiqiy tariximizni tiklashimiz, xalqimizni, millatimizni ana shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur. Tarix bilan qurollantirishimiz, yana bir bor qurollantirishimiz zarur"¹⁸. Tarix taqozosi shunday bo'ldiki, O'rta Osiyo mintaqasida markaziy o'rinni egallovchi O'zbekiston hududi qadim zamonlardan boshlab, o'troq dehqonchilik va ularning chorvador ko'chmanchilar madaniyati bilan o'zaro tasirga kirishi jarayoni yuz bergan makonga aylandi. Mazkur sivilizatsiyasining moddiy yodgorliklarini o'zbek tuprog'i o'z bag'rida saqlab kelyapti. Ahmadali Asqarov bevosita rahbarligida birdam, ahil arxeolog I- olimlar jamoasi shakllandi, o'ziga xos "Samarqand arxeologiyasi maktabi" tashkil topdi. Ahmadali Asqarov nafaqat tashkilotchi rahbar, balki haqiqiy fan zahmatkashlaridan biridir. U Buxoro, Qarshi - Surxon Icho'llarida, Toshkent va Farg'ona vohalaridan tortib to uzoq sibir kengliklarigacha bo'lgan hududlarda ko'plab arxeologik izlanishlar o'tkazgan fidoiy tadqiqotchi hamdir. Domlaning ilmiy izlanishlari 12 ta managrafik yirik asarlar l(shulardan 2 tasi darslik) va 300 dan ortiq ilmiy, ilmiy - ommabop ishlarda o'z aksini topgan. Ahmadali Asqarovning ilmiy faoliyati ko'p qirrali bo'lib, vatanimiz tarixi va madaniyatiga oid ko'plab sohalarni qamrab olgan. Olim o'z tadqiqotlari bilan O'zbekistonda qadimgi tarix ifanida yangi yo'nalish ochdi. Bu yo'nalish ibtidoiy jamoa tuzumining yemirilishi, sinfiy jamiyatning vujudga kelishi, urbanizatsiya jamoasining boslanishi va rivojlanishi masalalarini arxeolog manbalar asosida o'rganishi bilan uzviy maqolalarini 8 ta katta ilmiy yo'nalish bo'yicha umumlashtirdi. Ahmadali Asqarovning ilmiy faoliyatidagi yetakchi yo'nalishlardan yana biri Janubiy O'zbekiston - Qadimgi iBaqtrya hududidagi bronza davri yodgorliklarini o'rganilishi, ularning qadimgi sharq sivilizatsiyasida tutgan o'rni va

¹⁸ Каримов И.А.Тарихий хотирасиз келажак йўқ. -Тошкент: Ўзбекистон, 1998.- Б.25.

ahamiyatini ochib berilishidir. Janubiy O'zbekistonning bronza va ilk temir davri yodgorliklarida olib borilgan so'ngi izlanishlar va yangidan yangi ilmiy dalillarning topilishi yuqorida keltirilgan sanalarga bazi bir tuzatishlar kiritilishini taqazo etdi. Jahon tarixida bronza davri miloddan avvalgi 3-ming yillik oxirlaridan boshlanadi. Bu davrda (qadimgi Misr, Mesopotamiya, Kichik Osiyo va Eronning janubiy g'arbida davlatlar shakllanib, quldorlik jamiyati keng ravnaq topgan edi. O'zbekiston hududida esa bu davr miloddan avvalgi II- ming yillikning I-choragida boshlanib, miloddan VIII-avvalgi asrlargacha davom etadi. SHuningdek, jamiyat taraqqiyoti ham o'ziga xos tarzda davom etgan. O'rta Osiyoning janubiy hududlarida dehqonchilik madaniyati ravnaq topib, ilk shahar madaniyati tarkib topdi. O'zbekistonning janubiy-sharqiy va markaziy hududlarida, ya'ni Samarqand, Farg'ona, Qarshi vohasi hududlarida ilk shahar madaniyati izlari so'nggi bronza davriga kelganda vujudga keldi. Ungacha bu hududlarda ko'chmanchi chorvadorlar madaniyati, ya'ni Andronova va Tozabog'yob madaniyatlari aholisi yashab kelgan. O'zbekistonning shimoliy hududlarida cho'l va dasht chorvachilik xo'jaligi etakchi o'rinni egallagan. Zarafshon, Sirdaryo va Amudaryo etaklarida so'nggi bronza va ilk temir davrida chorvador qabilalar o'troqlashib, sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullana boshlaganlar va ular asosida qishloqlar tashkil etiladi¹⁹. Jarqo'ton uch qismdan iborat. Uning arki 3ga maydonni egallagan. Arkning atrofi mudofaa devorlari bilan o'rab olingan. U erda hukmdorning qarorgohi joylashgan. Mudofaa devori somon qo'shilgan xom g'ishtdan ishlangan. Devor qalinligi 3m, balandligi 5-6m bo'lgan. Hozirda saqlangan qismi 1 m gacha boradi. Devor kvadrat shaklidagi burjlar bilan mustahkamlangan. Arkka kirish darvozasi janub tomonda joylashgan. Arkda hukmdor saroyi alohida ajralib turadi. Saroyda ko'p oddiy xonalar bo'lib, saroy maydonida 20kv.m supa joylashgan. Arkning sharqiy tomonida bir necha uy-joy massivlari topilgan. Ular 1,5 m qalinlikdagi supa ustiga qurilgan. Bu erda ko'p xonali hovlilar ochildi. Har bir hovlida 2-3 ta o'choq topilgan. Ustoz bir necha yil

¹⁹ Сагдуллаев А.С. Лушпенко О.Н. Кеш воҳасидаги энг қадимги шаҳар. // Кеш-Шахрисабз тарихидан лавҳалар. 2-лавҳа. Т. 1998 44-62 бб.

Samarqand Davlat universitetida, o'qituvchilar malakasini oshirishi institutida, kooperativ institutida tarix va arxeologiyadan talabalarga saboq berdi. Oliy o'quv gartlari uchun 2 ta, o'rta maktab 5-sinflari uchun darslik-qo'llanma tayyorlab chop etdi (77; 117; 129). 1994" yili A.Asqarov harakatlari va bevosita rahbarligida o'rta maktablar uchun "Uzbekistan tarixi" o'quv qo'llanmasi (5-9 sinflar uchun) ommaviy nusxada 5ta kitob nashrdan chikdi (189-192). Hozirgi kunda mana shu besh darslikni (O'zbekiston tarixi, darslik va ko'llanma) rus, qozoq, tojik, kirgiz, turkman, qoraqalpoq tillarida nashr etish ishlariga kirishildi.

AAsqarov bagri keng, saxiy ustozlardan xisoblanadi. Ustozning bevosita ilmiy rahbarligi ostida 10 nomzodlik dissertatsiyasi va 2 doktorlik ishi muvaffakiyatli ximoya qilindy (205-216). Hozirgi kunda ham arxeologlardan To'rabyokov M. (Qoraqalpoq Davlat universiteta), Raxmonov U. (Toshkent Davlat universiteta), Berdimurodov A Matboboev B, Papaxristu O. (Arxeologiya instituti) va boshqalar ustoz raxbarligida doktorlik ilmiy ishlari ustida ishlamokdalar. Ustoz o'z faoliyatida 40 dan ortak, kitobga jumladan Arxeologiya institutining bosh nashri "O'zbekiston moddiy madaniyati tarixi" 14 jildiga muharrirlik qilgan.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

- 1.Каримов И.А.Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. 1- жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996. – 364 б.
- 2.Каримов И.А. Биздан озод ва обод Ватан қолсин. 2-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996. – 380 б.
- 3.Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. 3-жилд – Тошкент: Ўзбекистон, 1996. – 366 б.
- 4.Каримов И.А. Янгича фикрлаш ва ишлаш давр талаби. 5-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – 384 б.
- 5.Каримов И.А. Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан қурмоқдамиз. 7- жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 1998. – 429 б.
- 6.Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Тошкент: Ўзбекистон, 1998. - 32 б.
- 7.Каримов И.А. Баркамол авлод орзуси. – Тошкент: Шарқ, 1999. -181 б.
- 8.Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт пировард мақсадимиз. 8-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2000. – 528 б.
- 9.Каримов И.А. Ватан равнақи учун ҳар биримиз масъулмиз. 9-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2001. – 432 б.
- 10.Каримов И.А. Хавфсизлик ва тинчлик учун курашмоқ керак.10-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – 430 б.
- 11.Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. –Тошкент: Маънавият, 2008. -Б.84.
- 12.Каримов И.А.Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида.- Тошкент: Ўзбекистон, 2011.-439 б.
- 13.Гремяцкий М.Д. Череп ребенка неондерталца из грота Тешикташ. М.: Наука 1981.

14. Исломов Ў.И., Крахмаль К.А. Полеэкология и следы древнейшего человека в Центральной Азии. Тошкент: Фан 1995.
15. Кабиров Ж., Сагдуллаев А. Ўрта Осиё археологияси. Тошкент: Ўқитувчи. 1990.
16. Аскарлов А. А. Сапаллитепа – Т. 1973.
17. Аскарлов А.А. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы на юге Узбекистана. – Т. 1977.
18. Аскарлов А.А Абдуллаев Б. Джаркутан. – Т 1983.
19. Аскарлов А.А Ширинов Т. Ранняя городская культура эпохи бронзы юга Средней Азии. – Самарканд 1993.
20. Аскарлов А.А. Энг қадимги шаҳар. Т 2001.
21. Исомиддинов М. Сополга битилган тарих. – Т. 1993.
22. Исамиддинов М.Х. Сулайманов Р.Х Еркурган (стратиграфия и периодизация). – Т. 1984.
23. Сагдуллаев А.С ва бошқ. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. – Т. 2000.
24. Шайдуллаев Ш.Б Северная Бактрия в эпоху раннего железного века. – Т. 2000
25. Ширинов Т.Ш Орудия производства и оружие эпохи бронза Среднеазиатского Междуречья. – Т. 1986.
26. Ўзбекистон тарихи. А.Сагдуллаев. Б.Эшов таҳрири остида. – Т. Университет, 1997.
27. Ўзбекистон тарихи. Муаллифлар жамоаси. – Т. 2003.
28. Эшов Б. Цивилизация тарихида илк шаҳарлар. – 2004.
29. Қудратов С.С Марказий Осиё Ҳудудларида илк давлатларнинг пайдо бўлиши. – Гулистон. 1998. 18-19 бб.
30. Ўзбекистон тарихи (1-қисм). Т. “Университет” 1997.
31. Ўзбекистон тарихи (талабалар учун қисқача маърузалар матни), Т., “Университет”, 1999.
32. Шамсутдинов Р. Каримов Ш Ватан тарихи (биринчи китоб) Т.; “Шарқ” 2010.

ИНТЕРНЕТ МАНБАЛАР

1. www.asiapacific.narod.ru.
2. www.eurasia.org.ru.
3. www.emu.kz/academics/humanitarian/whistory/
4. www.history.ru
5. www.magister.msk.ru/library/history/history1
6. <http://www.auditorium.ru>
7. www.museum.ru